

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI

“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

Bozorov Komil Karimboyevich

**HAYKALTAROSH TURKMAN ESONOV IJODIDA ZAMONUVIYLIK VA
UNI KASB-HUNAR KOLLEJ O'QUVCHILARIGA O'RGATISH
METODIKASI**

“5211200-Amaliy sanat” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar
katta o'qituvchi:

D.Ergashev

Bitiruv malakaviy ishi “Badiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri:

katta o'qituvchi D. Irgashov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “___” iyundagi majlisida himoya qilindi va ___ ball bilan baholandi (bayonnoma №___).

Ya DAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. Haykaltaroshlikning rivojlanishi va uni o'rganishning ahamiyati ..	8
1.1 Haykaltaroshlik san'atining tarixiy taraqqiyoti	8
1.2 Jahon xalqlari haykaltaroshlik san'ati tarixi	11
1.3 Qadimiy va zamonoviy O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati	17
Birinchi bob bo'yicha xulosa	24
II bob Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatishning shakllari	25
2.1 Haykaltarosh Turkman Esonov ijodiy yo'li	25
2.2 Haykaltaroshlik fanida ishlatiladigan o'quv qurollari va materiallari-dan foydalanish	29
2.3 Haykaltarosh Turkman Esonov ijodini kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatishning shakl va metodikasi	32
Umumiy xulosalar	47
Iboralar lug'ati (Glosari)	49
Foydalanilgan adabiyotlar	52
Ilovalar	54

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Haykaltaroshlik tasviriy san'at turkumidagi predmetlardan biridir. Talaba inson bilan bog'lik ijodiy yulini san'at asarlariga xam kuchirish xususiyatiga ega. Xaykaltaroshlikni urganishda talaba qalamtasvir, rangtasvir fanlaridan amaliy ishlarni bajarish jarayonida olgan bilim, kunikma va malakalariga tayanadi. Shuningdek, talaba haykaltaroshlikning kelib chiqish tarixi va rivojlanishini urganishi, uning qonun-qoidalarini bilishi, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchisini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda xam ahamiyatlidir.

Kollejlarda tasviriy va amaliy san'at predmeti o'quvchilarni rasm chizishning yelemantar asoslari bilan tanishtirish va badiiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga yega. Shu jumladan xaykaltaroshlik xam shunday axamiyatga molikdar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Bizdan ozod va obod Vatan kolsin" nomli asarida ma'naviy kadriyatlar insonning mustaxkam poydevori bulishi kerakligini kup bora ta'kidlab utadi. Aytgan ediki: - "Uta ukimishli, ruxan bardam va jismonan bakuvvat kishilargina istiklol va tarakkiyot yulini bosib uta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalkimizning ma'naviy kadriyatlari iktisodiy uzgarishlarimizning mustaxkam poydevori bulib xizmat kiladi". (Uzbekiston iktisodiy siyosatining ustivor yunalishlari // Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. 2.-T., 1996.-13-b.

Respublikamiz davlat ta'lim standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2002 yil 21 fevral 54 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan standart kasb- hunar va oliy ta'limga ham joriy yetilgan. Shu kabi umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standartlari ham 1999 yil 16 avgustda hamma ta'lim muassasalariga joriy qilingan yedi. Xaykaltaroshlikni ukitishning DTSlari xam ta'lim samaradorligini oshirish va barkamol avlod ta'lim – tarbiyasiga karatilgan.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Xaykaltaroshlik masallari tasviriy san'at predmetining asosiy bir qismi xisoblanadi. Kollejlarda xaykallar yasash kupincha tugarak mashgulotlarida olib boriladi. Bularning xammasi xam rasm chizish va uning metodikasi masallari bilan ko'prok boglik. San'at kollejlarning

xaykaltaroshlik mutaxassisleri tayyorlaydigan bo'limlari ham bor. Haykaltaroshlikni ukitish va bu masalalar bilan metodist olimlar shug'ullanishgan. Shulardan professor R.Xasanov, M.Nabiyev, B.Oripov, B.Azimova, B.Boymetov, N.Tolipov, R.Rajabov, D.Irgashev, X.Egamovlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini o'z asarlarida yoritgan bo'lib professor S.Bulatov, Q.Qosimovlar amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ishlar olib borgan. San'atshunos olimlardan R.Toktosh, A.Xakimov, E.Xujayeva, B.Bobojonova, I.Umarovlar tomonidan urganilgan. Haykaltarosh Turkman Esonovning ijodi bo'yicha olim X.Jurayev o'rganib o'zining maqolalarining chop etgan.

B.Bobojonova oldingi davrda urnatilgan ikkinchi jaxon urushi kurbonlariga atab bunyod etilgan xaykallarning badiiy salmogini tadkik kilib, saviyali yodgorliklar bilan birga, ijodiy muammolarga xam e'tiborini karatadi. Xaykaltaroshlik masallariga bagishlangan katta ishlar avvaldan Mikelanjelo, E.Fal'kone, Vuchetich, I.Jabborov, E.Aliyev, R.Mirtojiyev va boshka kuplab xaykaltaroshlar bilan boglik. Xaykaltaroshlik darslari soatini utkazish metodikasi va uni o'qitish masalalari bo'yicha rus rassom va metodistlaridan professor V.S.Kuzin, I.I.Shoroxov, N.N.Rostovsev, B.P.Yusov, B.M.Neminskiy, T.Ya.Shpikolova-larning ko'plab asarlari mavjud. Shuningdek, kasb-hunar ta'limiga oid haykaltaroshlik masalalari bilan olimlardan B.Boymetov, A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov kabilar metodik jixatdan urganishgan. Shunday bo'lsada mustaqilligimizdan so'ng yaratilgan tasviriy san'atning haykaltaroshlikka oid alohida darslik maktablar uchun chop yetilgan yemas. Kasb - hunar ta'limida xam bu masalalari bo'yicha xali ko'plab muammolar bor. Haykaltaroshlik bilan bog'liq darslarni kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari olib borishadi va ularning asosiy qismi nazariy hamda amaliy ishlarni darslarda tushuntirishlari bilangina cheklanib qoladi. O'quvchilar mustaqil bajarishi uchun yetarli adabiyotlar topa olmaydilar.

Ammo bu kishining qator xususistlariga ham bog'liqdir. Urganish uchun avvalo rasm chizuvchi kishida istak bo'lishi hamda unga qiziqishi, xoxishi bulishi

lozim. Shuningdek, kerakli adabiyotlarni o'qib osondan qiyinga borish tamoyiliga amal qilgan holda batartiblik bilan rasmlar chizib mashq qilish zarur.

Demak, shunday yekan, doimiy ravishda qunt bilan adabiyotlarni urganib chizish sirlarini mashqlar orkali uzlashtirib borilsa sekin-asta savodli rasm chizishga va haykallar bajarishga o'rganish mumkin.

Samarqand haykaltaroshlik maktabida o'z o'rniga ega bulgan haykaltarosh Turkman Esonovning ijodiy yo'li ham ancha ibratlidir. Shularni hisobga olib men diplom ishimni **“Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi”** deb belgiladim.

Maqsadi: Haykaltaroshlik san'atining tarixiy taraqqiyotini yoritish, Haykaltarosh Turkman Esonov ijodini o'rganish va kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir samarali usullarini ishlab haykaltaroshlikni takomillashtirish.

Vazifalari: – Haykaltaroshlikning rivojlanishi bosqichlarini o'rganish. Talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish;

- borliq obyektlarini loy va turli boshqa materiallar vositasida yasash jarayonida haykaltaroshlikga tayanish; inson, qush va hayvonlar haykaltaroshlik asoslari bilan tanishtirish;

- haykaltaroshlik o'qitish metodikasining nazariy va metodik asoslari mazmun va mohiyatini o'rganish. Haykaltarosh T.Esonovning ijodiy ishlari bilan o'quvchilarni tanishtirish.

Obyekti: Haykaltaroshlik san'ati va xaykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish jarayoni.

Predmeti: Haykaltaroshlik san'atining rivojlanish davri, Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish dars va darsdan tashkari ishlar.

Metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

Ilmiy faraz: Agar;

- Haykaltaroshlik tarixini urganib Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi qonuniyatlariga amal qilinsa;
- Haykaltaroshlikning zamonoviy va uning tarixiy taraqqiyotini o'rganilsa;
- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olinsa;
- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining o'ziga xosligi tomonlari anglansa;
- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga amal kilingan xolda ish yuritilsa;
- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodidan kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish uchun undan dars jarayonida foydalanilsa.

Amaliy ahamiyati:

- Haykaltaroshlikning kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi tarixi yoritib berilgani.
- Haykaltaroshlikning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ochilganligi.
- Haykaltaroshlikning o'ziga xosligi belgilandi.
- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir darslarining turli yo'llari va usullari ko'rsatib o'tildi.

Nazariy ahamiyati. O'rganilgan natijalar haykaltaroshlik san'ati tarixidagi urnini kengaytirib, zamonoviylik bilan uni belgilash, nazariy masalalarni tushunib yoritish bilan bog'lik. Haykaltaroshlik san'atining ma'ruzalarida, amaliy mashg'ulotlarda mutaxassislik fanlarda amaliy foydalanish mumkin.

Yangiligi: Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikada birinchi marotaba dars jarayoniga olib kirilmoqda. Haykaltaroshning ijodiy ishlari bilan haykaltaroshlik taraqqiyoti uyg'unlashtirilganligi.

Tajriba – sinov ishlari. Samarqand davlat arxitektura qurilish me'morchilik instituti, tasviriy san'at yo'nalishi bo'limi, Samarqand shahar rassomchilik san'ati kolleji, san'at maktabi, 1-son pedagogika kollejining tasviriy san'at darslarida olib borildi.

Qullanilish sohasi. Barcha haykaltaroshlik darslari, tugaraklarni olib boradigan maktab, kollej, oliy ta'lim tasviriy san'at yo'nalishlarining nazariy va amaliy darslarida foydalanishlari mumkin.

Tuzilishi: Kirish, ikki bob, besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib 56 betni tashkil etadi.

I bob. Haykaltaroshlikning rivojlanishi va uni o'rganishning ahamiyati.

1.1 Haykaltaroshlik san'atining tarixiy taraqqiyoti.

Haykaltaroshlik tarixi qadimiy Paleolit va neolit davrlaridayoq loy, suyak, shox, toshning yumshoq xillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlanganligi ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlangan, firavnlarning katta haykal va relyeflari yaratilgan. Ularda firavnniing qudratli ekanligi ifodalangan, ko'pincha bunday haykallar iloxiylashtirib aks ettirilgan. Yunonistonda, qisman Qadimgi Rimda haykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalariga xizmat qildirildi (har tomonlama go'zal inson gavdalantirildi). Xristiyan dini o'rta asrlarda haykaltaroshlikni sobor, ibodatxonalarning muxit qismiga aylantirdi. Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Xindiston, Xitoyda budda ibodatxonalari ulkan haykallar bilan bezatilgan.

Xindistonda metall haykal tayyorlashning o'ziga xos texnikasi vujudga kelgan (haykal mumdan ishlanib, loy forma bilan qoplangan, qizdirilgan, mum oqizilib o'rnini metal egallagan). Ayritom, Varaxsha, Niso va boshqa joylardagi arxeologiya obidalari bu yerlarda ham Haykaltaroshlik qadimda rivoj topganini ko'rsatadi. XIII-XVI asrlarda haykaltaroshlik diniy mazmundan xalos bo'la boshladi. XV-XVI asrlarda Italyan haykaltaroshligida insonparvarlik g'oyalari ifodalandi (Donatello, L.Giberti, Verrokko kabi buyuk haykaltaroshlar). Uyg'onish davrida haykaltaroshlikda Mikelanjelo ijodi Yevropa san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rus haykaltaroshligida XVIII asr boshlaridan Haykaltaroshlik diniy mazmundan xalos bo'la boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Yevropa san'atida Haykaltaroshlik demokratik ruxda taraqqiyot yo'liga kirdi. Realistik san'at uchun kurash avj oldi. Rus haykaltaroshligida peredvijniklar



ta'siri kuchaydi. XIX asr oxiri XX asrda haykaltaroshlikda ham formalistik oqimlar ta'siri avj oldi.

O'zbekistonda haykaltaroshlik soxasida, ayniqsa, 50-yillarda diqqatga sazovar asarlar yaratila boshladi. F.Grishchenko, A.Ivanov, N.Krimskaya, D.Ryabichev kabi haykaltaroshlar monumental haykal, dastgoxli haykaltaroshlik soxasida samarali ishladilar. 60-yillardan M.Musayev, D.Ro'ziboyev, A.Toirov, X.Xusnitdinxo'jayev, Q.Saloxiddinov, M.Ivanov, A.Axmedov, Ya.Shapiro, A.Boymatov, N.Feodoridis, P.Ivanov, L.Ryabsev kabi iste'dodli yoshlar yetishib, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini yarata boshladilar. Haykaltaroshlik – tasviriy san'at soxasi. Tasvirlanadigan narsani xajmli, o'lchovli (o'zunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettirish prinsipiga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman xayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondagina ko'riladigan relyefga bo'linadi. Relyefning xajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqalar) da foydalaniladi. Relyefning past (barelyef), baland (gorelyef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari ham bor.

Mazmun va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (monumental, yirik haykal inshootlar-jamoat joylariga o'rnatiladi, hajmi yirik qilib ishlanadi. Monumental bezak haykaltaroshligi (binolar, turli inshootlarga, bog', park, maydon, yo'l va boshqa joylarda muxitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, xajmi xar xil: Badiiy fontanlar ham unga kiradi), dastgoxli haykaltaroshlik (haykaltarosh dastgox ustida ishlaydi; Muzey, ko'rgazma zallariga, binolarning interyerlariga qo'yiladi, hajmi naturaga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko'riladi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (relyef, tasvirli plastinka), medal, tanga, o'yinchoqlar, o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jixozlar, qurol va idishlarga ishlangan shakl-tasvirlar, zargarlikda relyef xosil qilib tayyorlangan bezaklarga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qismandastgoxli haykaltaroshlik asarlari san'at sinteziga xizmat qildiriladi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan. Haykaltaroshlik asari oldida turgan vazifaga qarab uning hajmi, materiali belgilanadi. Haykaltaroshlik asarlari qadim zamonlarda, o'rta asarlarda, Uyg'onish davrida (ayniqsa barokko uslubida) ko'pincha turli ranglarga bo'yalgan XIX-XX asrlarda, asosan, material rangli saqlandi yoki sidiq'a bo'yaladigan bo'ldi lekin antiq san'atda Qadimgi Rimda, Uyg'onish davrida ayrim ulkan haykaltaroshlar material rangini saqlaganlar yoki nim rangga bo'yaganlar. Haykaltaroshlikda foydalaniladigan asosiy materiallar: loy, mum, plastilin (haykaltarosh metall, yog'och steklar-qalamchalardan, halqalardan foydalanadi). Bu materiallar chidamsiz, shuning uchun ham ko'pincha eskiz tayyorlanadi, yoinki model ishlanib, undan olingan forma orqali gips haykal ishlanadi. Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyuminiy), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib qotiriladi (boshqa materiallardan tayyorlangan modeldan forma-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berish, ishlov berish, berish haykaltaroshlik asari ishlanadi. Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorim va boshqalar): suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib (bolg'a va yo'nadigan, kesadigan, o'yadigan asboblardan yordamida) tasvir ishlanadi. Yog'och odatda, nim rang bo'ladi.

Keramika (terrakota, chinni xillari) haykaltaroshlik asarlari maxsus tuproqdan qorilgan loyni shaklga solib, keyin xumdon, maxsus pechlarda (sirlab) qizdirib ishlanadi, ko'pincha sirlab turli rangga bo'yaladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarab, kichik xajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik xajmdagi asarni loydan tayyorlaydi. (aylanadigan dastgox ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, taxtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va shakl xosil qiladi). Bu shakldan 2 yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi. Tosh haykal

ishlanayotganda anashu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nusxasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, o'zoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan maxsus korxonalarda amalga oshiriladi. Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin .

1.2 Jahon xalqlari haykaltaroshlik san'ati tarixi.

Piramidalar qurilishi: Misrda piramidlar va makbaralar kurilishi podshoning xukmdorligini kanchalik kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Bu makbaralarga vafot etgan fir'avnlar dafn etilar edi. Eng katta piramida eramizdan avval 2600 yil avval Memfis yaknida fir'avin Xeops uchun kurilgan. Piramidaning balandligi 150 metr, uning atrofini aylanib chikishi uchun 1 km yurish kerak. Uni kurishga 2300 xarsang tosh ketgan. Toshning eng kichigi 2 tonna keladi Ulkan Sfinks Piramidalar yaknida butun bir goyadan Sfinks-sher boshli juda katta haykal uyib ishlangan. Fir'avinlarning biri Sfinks shaklida tasvirlangan, haykalning balandligi 20 metrdan ortadi. Tosh paxlavon shunday qurquv uyg'otar ediki, daxshat otasi deb atashardi. Bu ulkan piramidalar va Sfinks misrliklarga fir'avinlar oddiy odamlar emas, balki kudratli xudolardir degan fikrni singdirilishi lozim edi. Bu piramidalar xozir xam fir'avinlar xokimiyatining guvoxi sifatida kad kutarib turibdi. Piramidalardan topilgan haykalchalar fir'avin taxtda (Qadimgi Misrdagi haykalcha), jangchidardan kochayotgan churi (Qadimgi Misrdagi haykalchalar), Qadimgi Misrdagi tibbiyotda ishlatiladigan bronza asboblari, koxinning Qadimgi makbaradagi haykalchasi, nazoratchining makbaradagi haykalchasi, Fir'avin Tutanxomonning oltin tobuti (unda marxumning yuzi tasvirlangan), amaldorning yegochdan ishlangan haykalchasi. Misrda makbaralarga uning egasining toshdan uyib yoki yegochdan kesib ishlangan haykalchalari kuyilgan. Mirsliklarning e'tikotiga karaganda, rux haykalchaga xam joylashib olar ekan. Marxumni ulugvor bir qiyofada tasvirlaganlar, marxum ulganidan keyin xam, xayot vaktida kaday bo'lgan bo'lsa, shunday bo'lib kolishi, fir'avin bo'lib kolishi kerak ekan. Birok

barcha haykalchalarning yuz qiyofalari xar xil bo'lgan; Misrlik haykaltaroshlar insonning ko'z qiyofasini tasvirlashda katta maxoratga erishganlar. Xaykallarning xayotiyliги yana shu tufayli kuprok ortganini, ularni buyoklar bilan buyaganlar, ularga billur va rangli toshlardan ko'zlar xam yasaganlar. Makbaraga kiruvchiga shunday tuyuladiki, bir necha ming yil ilgari yasalgan haykalcha emas, balki yirik odam karab turgandek bo'ladi.

Yevropaning janubida Bolkon yarim oroli bo'lib, uning janubiy kısmi uncha katta bo'lmagan toglik mamlakat - Gresiya joylashgan. Gresiyada temir, mis, kumush, marmar konlari uchrab turadi. Arxeologik tekshirishlar shuni isbotlab beradiki, eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda qadimda, yevropada 1-sinfiy jamiyat va davlat tashkil topgan, fan va madaniyat ancha tarakkiyotga erishgan.

Ellin haykaltaroshlik san'ati:
Gresiyada IV-V asrlarda arxitektura juda rivojlangan. Qadimda grek memorchiligida portiklar yog'och ustunlar kutarib turadigan. Oddiy bostirmalardan iborat bo'lgan. Portiklar oftob nuridan saklagan va shabada esib turishiga xalakit bermagan. Keyinchalik yogoch ustunlar o'rnini tosh va marmardan ishlanadigan bo'lga. Ustunlar 2 uslubda ishlangan. Doriy va



Ioniya uslubida. Greklar binolar kurishda tosh ustunlar va yurtiklardan foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V-IV asrlardali haykaltaroshlar yogochni, toshni, marmarni yunib ishlaganlar, bronzani kuyganlar. Marmar haykallarri odam badani rangi singari buyaganlar. Bronza haykallariga rangli toshdan ko'z yasaganlar. Yogochdan ishlangan ayrim haykallar ustiga odam tanasining rangini beradigan fil suyagidan ishlangan yupka plastinkalar yopishtirilgan. Haykallar shu darajada koyilmakom kilib ishlanganki, ular tirikdek «Nafas olayotgandek», «xozir gapiradigandek» tuyulardi. Eramizdan avvalgi V asrda haykaltaroshlar odam

gavdasining xarakat kilib turgan xolatlarini tasvirlashni bilib olganlar. Ular odamlarni yugurayotgan, jang kilayotgan xolatda yoki nayza otayotgan xolatida tasvirlab kursatganlar.

Afinalik haykaltarosh Miron ishlagan «Disk otuvchi» haykallarni kurgan kishi xayratga tushadi. Qadim doston va afsonalarda aytilishicha, xaykltaroshlar o'z asarlari uchun qaxramonlarning qaxramonlar, ma'budalarning poetik obrazlarini va butun bir manzaralarini tanlab olganlar. Haykaltaroshlar odam gavdasini juda kelishgan qilib tasvirlaganlar. Agar kishining qiyofasi xunuk bo'lsa, ellinlar



buni tabiatning xatosi deb xisoblaganlar va o'z ishlarida san'at bu xatoni to'zatisi kerak deb tug'irlaganlar. Haykaltaroshlar Zeves va Posoydonning sersavlat haykallari qiyofasida grek shaxar davlatlarining dono xukmdorlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatganlar. Shaxarning etiborli joylarida ellinlar o'z vataniga shon-shuxrat keltirgan lashkarboshilar, shoirlar, musobaqa g'oliblari haykallarini o'rnatganlar.

Rim haykaltaroshligi: Rimliklar Gresiya va Sharq mamlakatlaridan ko'plab haykalarni olib kelish bilangina chegaralanmay, marmar va bronzadan ushbu haykalalrning nusxalarini xam yaratganlar.

Qadim zamonlardanoq yo'q bo'lib ketgan. Grek san'at asarlarini Rim haykaltaroshlari Grek haykaltaroshlaridan urganganlar va ularga taxlit kilganlar. Ko'pincha ular imperatorlarni xudolar va afsonaviy kaxramonlar sifatida tasvirlaganlar. Rimliklar olimpiya xudolariga siginganlar, ammo ularning nomlarini o'zgartirganlar. Masalan, Zevsni Yupitir deb dengiz xudosi Poseydonni Neptun, Gefstni esa Vulqon deb ataganlar. Imperator g'alabalarini kuklarga kutargan ishlangan haykalalar Releflar, arklar, ustunlar imperator

xokimiyatining xudo tomonidan-yaratilganligi va qurilganligiga ifoda etilishi lozim edi. Rim haykaltaroshlari portretlar yaratishda Grek ustozlaridan o'zib ketdilar. Qadim zamonlardan o'q Rimda o'lgan odamlar yuzini mumdan quyib maska yasaganlar. Portret haykallar ishlash san'atini rivojlantirganlar. Rimda ishlangan portretlar odam qiyofasini tashqi ko'rinishi ifodalabgina qolmay balki uning xarakterini, irodasini, joxilligini ochib berib aniq ifodalaganlar. Feodal jamiyatning quynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi, G'arbiy Yevropa xayotida muxim o'zgarishlarga olib keladi. Din o'z obrusini yo'qota borardi. Mayda hunarmandchilikdan manfakturaga o'tish, asarlarning tezlik bilan kengayib rivojlanib borishi yangi qit'alarining ochilishi va savdosotikning rivojlanishi ijtimoiy xayotini o'zgartira boshlandi. U davrga kelib «qirol xokimiyati shahar aholisiga suyanib feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik aslida millatlarga asoslangan monarxiya tuzdi. Bu monarxiya xozirgi zamon Yevropa millatlari va xoziri zamon burjua» jamiyati tarakkiyeta boshladi. Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyati kamol topdi. O'z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu madaniyat tarixda Uyg'onish deb nom oldi. Bu iborani Italiyalik rassom va san'atshunos Jorj Vazarya Italiyada san'at o'zoq O'rta asrdan so'ng yana qaytadan Uyg'onganligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qullanilgan edi. Keyinchalik esa bu keng mazmunda kasb etib Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujud kelgan feodalizm asridan farq qiladigan san'atni tarflash uchun qo'llanila boshladi. Uyg'onish davri o'z xarakatini Italiyada to'liq namoyon etib qaror taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bo'lar asosan quyidagilardan iborat:



1. Uyg'onish arafasi davri -protorepessans (XIII-XIV asrlar).
2. Ilk uyg'onish davri - kvatrachento (XV asr).

3. Yuqori uyg'onish davri - (XV asrning 90 yillari XVI asrning 20-30 yillari).

4. So'ngi Uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi).

Tasviriy san'at. Tasviriy san'atda sodir bo'lgan xususiyatlar ham me'morchilikdagi ulug'vorlikka umumlashgan obrazlar yaratish hamda maxoratlashtirishga xarakat qilishda namoyon bo'ldi.

Leonardo da Vinchi (1452-1529). Vinchi qishlog'i yaqinida natarius oilasida dunyoga keladi. Leonarda 17 yoshida otasi Florensiyaga ko'chib o'tadi. Shu yerda Leonardo Andrea Veroniko ustoxonasida tasviriy san'at borasidagi bilimni oshirdi. U o'z ustози Verokkioga yordamlashib uning «Isoni cho'qintirish» (tax. 1476 yil Florensiya galeriyasi) asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishladi va ustozidan ham moxirligini ko'rsatadi. Leonardo san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rdi. Matematika, fizika soxasida ilg'or fikrlarni ilgari surdi uning uchun san'at xayotni bilish vositasi bo'ldi. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» asari, xayotni o'rganish zaminida yuzaga kelgan qalb xarorati bilan isitilgan va xayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlaridir. Leonardo da Vinchi me'mor sifatida ham Milanda bir qator san'at projeklari ishladi «Gordagi Madonna» (1483-1484), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi asarlarini Milandagi «Sant Mariya della Grasiya» monastri uchun ishlangan sur'ati uni navator rassom darajasiga ko'taradi. Milan Fransiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florensiyaga qaytib keladi. Bu yerda mashxur «Mono Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mono Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirining mashxur yodgorligidir. Bu portret bilan Yevropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi. Rafael Santi (1483-1520) Leonardoning kichik zamondoshi bo'lib, oddiy rassom Javanniy Santining farzandi edi. Rafael rassomlik asoslarini dastlab otasidan o'rgandi, so'ngra urbinalik rassom Timoteo Viti ustaxonasida davom ettirdi. 1500 yili Perujino ustaxonasida o'z bilimni oshirdi. U ilk asarini 17 yoshida ilk asari «Konstebel Madonnasi» (1500) rassom ijodining ilk namunasidir. Perudjiyada 4 yilga yaqin bo'lgandan so'ng Rafael yana Urbinaga qaytdi va bir ozdan keyin Florensiyaga keldi.

Bu yerda o'zining mashxur bo'lishiga sabab bo'lgan «Madonnalar» obrazini yaratdi. Uyg'onish davrining ijodkorlardan biriga aylandi. XVI asr boshlariga kelib Rim Italiyaning muxim siyosiy va madaniy markaziga aylanadi. Rafaelni ham 1508 yili Rimga taklif qildilar. Shu paytdan boshlab Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael bu ishni muvaffakiyatli bajardi va bundan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezash va unga devoriy sur'atlarni ishlashni topshirishdi. U o'zining ajoyib dekorativ ustasi sifatida kursatdi. Bu sur'atlar papalarning mamlakatni siyosiy jixatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashni ko'rsatishi, yo'qolib borayotgan cherkov o'brusini qayta tiklash va mustaxkamlashi zarur edi. Rafaelning yana bir mashxur devoriy sur'atlaridan bu «Iliadorning kuylilishi» kompozisiyasidir, Rafael Rimda bo'lgan kezlarida yana bir mashxur «Sikst Madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi. Bu sur'at avliyo Sikst cherkovi uchun muljallangan. Bu asarda rassom o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun quyadigan ideal inson obrazini yaratib, o'z davrining kishilarini gumanistik ideallarini poetik talqin eta oldi. Rafael ijodining sunggi yillarida rassomchilik bilan birga me'mor sifatida ham ijod qilgan.

Mikelandjlo Buonarroti (1475-1564). U san'atning kup turlarida, jumladan haykaltaroshlik, me'morchilik rassomlikda ijod qilgan, lekin u san'atning qaysi turida ijod qilmasin shakliy jihatdan tugal, g'oyaviy jihatdan chuqur badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi. Mikelandjelo 70 yillik faoliyati davomida san'at maydonida davr ruxi bilan xamnafas asarlar yaratildi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak idellarin bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham nozik xis etgan xolda ko'rsata oldi. Mikelandjelo 1475 yili 6 martda Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florensiyada utdi, 13 yoshida u Florensiyalik Dameniko Girlandio usaxonasida o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste'dodi Florensiya xokimi Lorenzo Medchuni o'ziga tortdi. Uni Medichilar saroyi qoshidagi bednin maktabiga o'qishga olishdi. Saroyda yosh rassom antik

dunyo san'ati namunalaridan tanishdi va ulardan ko'chirmalar ishladi. Saroyda bo'lib turadigan mashxur shoir, rassom haykaltarosh va me'morlar yig'ilishida voqif bumish san'atkor dunyoqarashi rivojlandi. San'atkorning birinchi mustaqil ishlagan asari «Zina oldidagi Madonna» (1492), «Kentavrlar jangi» (1494), Rimda yaratilgan «Pyeta» (Isoga aza tutish 1498-1501) haykali Mikelanjeloga haqiqiy shuxrat keltirdi. 1501 yili Mikelanjelo Florensiyaga qaytada va shu yerda mashxur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat 1504 yili bu xaykal Florensiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Mikelanjelo o'zini haykaltarosh deb xisoblar edi, lekin rangtasvir san'atida ham o'z zamondoshlaridan o'zib ketardi. 1503-150 yillarda yaratgan «Muqaddas oila» asarning mazmuni yanada chuqurlashishi va ta'sirchanligini ortirishida katta ahamiyatga ega. Uning 1513-1516 yillarda ishlagan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul», «Ibroxim» haykallari, «Qiyomat qoyim» (1514) asarlarini yaratdi. Mikelanjelo ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga kuchli ta'sir qildi.

1.3. Qadimiy va zamonaviy O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati.

O'rta Osiyoda dastlabki O'rta asr elementlari va Quldorlik formasiyasi inqirozi VIII-IV asrlarda boshlandi. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning tez-tez hujumi Qo'shon imperasiyasining inqiroziga yuz tutishiga olib keldi. Eftaliylar O'rta Osiyo yerlarini o'z xukmdorligiga bo'ysindirish davrida yangi farmasiyaga o'tish yanada tezlashdi. Bu Oltoy, Yettisuv, Markaziy va O'rta Osiyoda yashovchi juda ko'p xalqlarni birlashtirdi. Turk xoqqonligi davrida mayda mustaqil podsholik paydo bo'ldi. Ayniqsa Sharq va G'arb karvon yo'li ustida joylashgan Sug'd madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo'lgan. Sug'd eng katta knyazlik hisoblangan. Samarqand xokimi Sug'd podshosi unvoniga sazovor bo'lgan.

Yozuv manbalari IV asrda Samarqand savdogarlarining O'rta Osiyo va uning tashqarisida ham, masalan, buyuk Xitoy devori yaqinidagi Dunxuadi

koloniyalar mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Lekin knyazlar O'rtasida kuchli birlik yo'q edi. U albatda, keyin arablarda qaram bo'lib qolishga sabab bo'lib qoladi. Bu davrda ko'plab ibodatxona va xashamatli qasrlar qurila boshlagan. Xitoylik tarixchi Samarqand va Buxoro O'rtasida qurilgan xashamatli bino hammani juda xayratlantirganligi binoning shimoliy devorida buyoqlar bilan xitoy imperatorining tasviri; Sharqiy devorida turk xoqqonlari va Xindiston xukmdorlari; G'arbiy devorida esa Eron va Rim podsholari tasviri tushurilganligi haqida aytadi. O'rta Osiyoda quddorlik formasiyasi inqiroziga yuz tutib o'z urnini feodalizmga bo'shatib berdi. Bu farmasiya kurilish ishlarida yaqqol ko'rina boshladi.

Ustun, yarim ustun, ark hamda turli dekorativ me'morlar hajmlarida podsho saroyining xushmanzara va maxobatli bo'lishida foydalanilgan. Bu binolar xom g'isht paxsadan ishlangan bo'lib ganch bilan bezalgan. Ganch, yog'och o'ymakorligi binoga fayz kiritgan. Ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda yagona din bo'lmagan jumladan, Farg'ona vodiysi Quvadan topilgan ibodatxona xarobasi ilk feodalizm davrida ham bu yerda buddizm mavjud bo'lganligini kursatadi. Bu yerdadagi ibodatxona ikki xonadan iborat bo'lib, oldi xonasi ayvon tepada va unga kiraverishda haykallar urnatilgan. Xorazmda topilgan kumish marosimi bilan bog'liq bo'lgan Ossuriy bo'lgan deb nomlangan to'rtburchak quticha shaklidagi loydan yasalgan tobutchalar bu yerda zorastrizm mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Dumaloq va burtma tasvir shaklida me'morchilik komplekslaridan keng ishlatilgan. Bu haykalalarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real xayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus loydan tayyorlangan, yog'och, ganch va toshdan ishlangan. Bu xususida varaxshadan topilgan yodgorliklar diqqatiga sazovordir. Varaqshadagi saroyini bezashda ganch o'ymakorligidan keng qo'llanilgan. Albatta ilk feodalizm madaniyatining ilk yutuklari monumental dekorativ rangtasvir san'atida o'zini to'liq namoyon kildi. Afrosiyob (Samarqand), Panjikent (Tojikiston), Varaxsha (Buxoro viloyati), Bolalik tepa (Surxandaryo viloyati)da topilgan, Devoriy sur'atlar va haykaltaroshlik namunalari jaxon

monumental rangtasvir san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. O'rta Osiyo jaxonga qator buyuk allomalar yetkazib berdi. Ular o'z mehnat va aqil zakovatlari bilan jahon ilmi fan taraqqiyotiga katta xissa qo'shdi. Al-Xorazmi, Abu ali Ibn Sino, Al-Beruniy, Al Farobiy, Al Buxoriy, Nakshbandiy; Ulugbek, Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Zebinosi kabi alloma va shoirlarni yetkazib berdi. Amir temur davrida O'rta Osiyoda ilm fan san'at gullab yashnadi. Me'morchilikda har o'zgarishlar yuz berdi. Afrosiyob yonbag'rida joylashgan Shoxi-Zinda Bibixonim madrasasi Guri Amir Maqbarasi Registondagi Ulug'bek madrasasi fikrimizga dalildir. Ulug'bek fallakiyot rivojlangan bo'lsa, Xusayin Bayqaro podsholigi davrida adabiyot va san'at rivoj topdi. Haykaltaroshlik san'atining asari o'lkamiz xududidagi zamonaviy jihatlarini iste'dodli ijodkorlar Damir Ro'ziboyev, Abdumumin Boymatov, Joldasbek Kuttimurotov, Ilxom Jabborov, Anvar Axmedov, Eynulla Aliyev, Ulugbek Mardiyev kabi haykaltaroshlar faoliyatida yakkol kurishimiz mumin. Haykaltarosh Ilxom Jabborov yangilanish va uyg'onish davrida Buyuk sarkarda Amir Temur obrazini yaratdi. Turli yillarda haykaltaroshlar tomonidan «Farxod» «Ibn Sino» «Forobiy», «Navoiy va Jomiy», «G'ofur G'ulom», «Alisher Navoiy» «Beruniy», «Bobur», «Xamid Olimjon» kabi buyuk mutafakkir olim, davlat arboblarning siymolari yaratildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach san'at va madaniyatda yangi sahifalar ochila boshladi. Qisqa davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratildi. Ana shunday milliy uyg'onish davrida O'zbekiston Mustaqilligi bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod man'aviyati, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyati va san'atning rivojiga aloxida e'tibor berildi. Zotan ma'naviyat, madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emas. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, - deb yozadi Prezident I.Karimov, - ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaxo ma'naviy va madaniy

merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muxim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sharchashmalariga uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”.

O'zbekistonda yangi ma'naviy – g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha soxalariga samarali ta'sir etadi, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. San'at, xususan, xaykaltaroshlik, istiqlool davrida mafkuraviy-g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat xayotidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot-targ'ibot vositalariga o'xshab tezkorlik bilan javob bera olmasada, mustaqillik yillarida yaratilgan xaykaltaroshlik asarlarida yangi g'oyaviy-mafkuraviy muxim ta'siri, milliy xamda tarixiy mavzular ustivorligi o'z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik xaykallari barpo etildi.

Xalqimizning boy ma'naviyati, turmush tarzi, urf-odatlarini chuqur o'rganish yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni ma'naviy shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo Da Vinchi “Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o'z san'ating bilan taqlid qilishda ustasi farang bo'lmasang, yaxshi musavvir bo'lmog'ing dargumon” deb takidlash orqali haykaltaroshlik san'atining sir-asrorlarini egallash, tabiatni o'rganish, uni sevish bilan naqadar bog'liqligini ko'rsatib, bu sohani o'ta murakkab soxa ekanligini o'qtirgan edi. Shuning uchun ham badiiy bilim yurtlarida haykaltaroshlik mashg'ulotlarini ham tarixiy-nazariy, ham zamonaviy-amaliy jihatdan olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Haykaltaroshlik bilan shug'ullanish talabalarining fazoviy tasavvurini, fikrlash qobiliyatini, narsa va predmetlarning plastik shaklini xis etishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu mashg'ulotlar talabalarda o'ziga xos badiiy estetik xis-tuyg'ularini uyg'otish bilan bir qatorda ulardagi go'zallikni ko'ra olishni, ijodiy qobiliyatni va estetik didlarini o'stiradi. Bu shubxasiz ularni Vatanga, el-yurtga, ota-onaga, tengdoshlariga bo'lgan xurmat va muxabbat ruxida tarbiyalashga xizmat qiladi, ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Haykaltaroshlik tarixi qadimiy Paleolit va neolit

davrlaridayoq loy, suyak, shox, toshning yumshoq xillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlanganligi ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlandi, firavnlarning katta xaykal va relyeflari yaratildi. Ularda firavnni qudrati ifodalandi, ko'pincha iloxiyashtirib aks ettirildi. Yunonistonda, qisman Qadimgi Rimda xaykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalariga xizmat qildirildi (xar tomonlama go'zal inson gavdalanitirildi). Xristiyan dini o'rta asrlarda haykaltaroshlikni sobor, ibodatxonalarning muxit qismiga aylantirdi.

Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Xindiston, Xitoyda budda ibodatxonalari ulkan haykallar bilan bezatilgan. Xindistonda metal haykal tayyorlashning o'ziga xos texnikasi vujudga kelgan (xaykal mumdan ishlanib, loy forma bilan qoplangan, qizdirilgan, mum oqizilib o'rnini metal egallagan). Ayritom, Varaxsha, Niso va boshqa joylardagi arxeologiya obidalari bu yerlarda ham Haykaltaroshlik qadimda rivoj topganini ko'rsatadi. XIII-XVI asrlarda haykaltaroshlik diniy mazmundan xalos bo'la boshladi. XV-XVI asrlarda Italian haykaltaroshligida insonparvarlik g'oyalari ifodalandi (Donatello, L.Giberti, Verrokko kabi buyuk haykaltaroshlar). Uyg'onish davrida haykaltaroshlikda Mikelanjelo ijodi Yevropa san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rus haykaltaroshligida XVIII asr boshlaridan Haykaltaroshlik diniy mazmundan xalos bo'la boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Yevropa san'atida Haykaltaroshlik demokratik ruxda taraqqiyot yo'liga kirdi. Realistik san'at uchun kurash avj oldi. Rus haykaltaroshligida peredvijniklar ta'siri kuchaydi. XIX asr oxiri XX asrda haykaltaroshlikda ham formalistik oqimlar ta'siri avj oldi.

O'zbekistonda haykaltaroshlik soxasida, ayniqsa, 50-yillarda diqqatga sazovar asarlar yaratila boshladi. F.Grishchenko, A.Ivanov, N.Krimskaya, D.Ryabichev kabi haykaltaroshlar monumental haykal, dastgoxli haykaltaroshlik soxasida samarali ishladilar. 60-yillardan M.Musayev, D.Ro'ziboyev, A.Toirov, X.Xusnitdinxo'jayev, Q.Saloxiddinov, M.Ivanov, A.Axmedov, Ya.Shapiro, A.Boymatov, N.Feodoridis, P.Ivanov, L.Ryabsev I.Jabborov, J.Mirtadjiyev A. Raxmatullayev kabi iste'dotli haykaltaroshlar yetishib, zamondoshlarimizning yorqin obrazlarini yarata boshladilar.

Tasvirlanadigan narsani hajmli, o'lchovli (uzunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettirish prinsipiga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli haykalga va bir tomondagina ko'riladigan relyefga bo'linadi. Relyefning xajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqalar) da foydalaniladi. Relyefning past (barelyef), baland (gorelyef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari ham bor.

Mazmun va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (monumental, yirik haykal inshootlar-jamoat joylariga o'rnatiladi, hajmi yirik qilib ishlanadi. Monumental bezak haykaltaroshligi (binolar, turli inshootlarga, bog', park, maydon, yo'l va boshqa joylarda muxitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, xajmi xar xil badiiy fontanlar ham unga kiradi), dastgoxli haykaltaroshlik (haykaltarosh dastgox ustida ishlaydi, muzey, ko'rgazma zallariga, binolarning interyerlariga qo'yiladi, hajmi naturaga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko'riladi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (relyef, tasvirli plastinka), medal, tanga, o'yinchoqlar, o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jihozlar, qurol va idishlarga ishlangan shakl-tasvirlar, zagarlikda relyef hosil qilib tayyorlangan bezaklarga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qisman dastgoxli haykaltaroshlik asarlari san'at sinteziga xizmat qildiriladi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan. Haykaltaroshlik asari oldida turgan vazifaga qarab uning xajmi, materiali belgilanadi.

Haykaltaroshlik asarlari qadim zamonlarda, o'rta asarlarda, Uyg'onish davrida (ayniqsa barokko uslubida) ko'pincha turli ranglarga bo'yalgan XIX-XX asrlarda, asosan, material rangli saqlandi yoki sidirg'a bo'yaladigan bo'ldi lekin

antiq san'atda Qadimgi Rimda, Uyg'onish davrida ayrim ulkan haykaltaroshlar material rangini saqlaganlar yoki nim rangga bo'yaganlar.

Haykaltaroshlikda foydalaniladigan asosiy materiallar: loy, mum, plastilin (haykaltarosh metall, yog'och steklar-qalamchalardan, halqalardan foydalanadi). Bu materiallar chidamsiz, shuning uchun ham ko'pincha eskiz tayyorlanadi, yoinki model ishlanib, undan olingan forma orqali gips haykal ishlanadi. Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyuminiy), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib qotiriladi (boshqa materiallardan tayyorlangan modeldan forma-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berish, ishlov berish, berish haykaltaroshlik asari ishlanadi.

Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorim va boshqalar): suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib (bolg'a va yo'nadigan, kesadigan, o'yadigan asboblari yordamida) tasvir ishlanadi. Yog'och odatda, nim rang bo'ladi.

Keramika (terrakota, chinni xillari) haykaltaroshlik asarlari maxsus tuproqdan qorilgan loyni shaklga solib, keyin xumdon, maxsus pechlarda (sirlab) qizdirib ishlanadi, ko'pincha sirlab turli rangga bo'yaladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarab, kichik xajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik xajmdagi asarni loydan tayyorlaydi. (aylanadigan dastgox ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, taxtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va shakl xosil qiladi). Bu shakldan 2 yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi. Tosh haykal ishlanayotganda anashu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nusxasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, uzoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan maxsus korxonalarda amalga oshiriladi. Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

Tasviriy san'atning turlaridan bir bo'lgan haykaltaroshlik san'ati qadimdan tarixiydir. Uzoq yillarni bosib o'tgan bu san'at turi odamlarning xayot tarzi bilan birga rivojlanish bosqichlaridan o'tganligini bilamiz. Shunday bo'lsada davrlar o'tishi bilan u rivojlanib kelmokda. O'zbekistonda ham qadimdan haykaltaroshlik shakllangan. Tarixda aytilishicha budda, sanamlar haykalchalari qadimdan topilgan. Lekin uning zamonoviy ko'rinishlari keyingi vaqtlardagina shakllandi. Asosan O'zbekistonda bu san'at turining rivojlanishi XX asrning boshlanishidan keyin deyish mumkin.

Haykaltaroshlikka doir o'quv qurollari, ularning ishlatilishi, kerakli materiallar va ulardan foydalanish masalalari birinchi bobda yoritildi. Shuningdek, haykaltaroshlikning o'rganilishi uchun kerak bo'ladigan elementlarining bajarilishi ham keltirib o'tildi. Agar haykaltaroshlikni o'rganish istagida bo'lganlar xuddi ana shularni oldin bajarib olishi kerakligi lozim.

Tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishi davomida haykaltaroshlik san'ati dunyoviy harakterga egaligi bilan qimmatlidir. Shuning uchun ham haykaltaroshlar ijodi doimo rivojlanishining olidida bo'ladi. Turkman Esonovning ijodi ham milliylik va zamonaviylik bilan yo'g'rilgan.

Agar Turkma Esonovning idodiy ishlarini darslarda, to'garaklarda tahlil qilib foydalanib borilsa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga katta foyda keltiradi.

II bob Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatishning shakllari.

2.1 Haykaltarosh Turkman Esonov ijodiy yo'li

Haykaltaroshlik haqida gap ketganda darov qadimgi haykallar kuz oldimizga namayon bo'ladi. Uyg'onish davri buyuk haykaltaroshlarining ijodiy yo'llari bugungi kundagi O'zbekiston haykaltaroshlarining ham ijodida kuzga tashlanmoqda.

Haykaltarosh Turkman Esonov ham ana shunday moxir haykaltaroshlardan biri sifatida tanilgan. Bularning hammasi mustaqillik tufayli deyish mumkin. Haykaltaroshning bir necha marta ko'rgazmalari bo'lib turishi zamonoviylikning ifodasi hamdir.

Haykaltarosh Turkman Esonov 1953 yilda Samarqand viloyatining Nurota tumanida to'g'ilgan. Xozirda bu Navoiy viloyatiga karashli sulim maskanlardan biri sifatida tanilgan xududdir. O'rta ta'limni shu Nurotaning maktabida o'qib tomomlagan. Yoshlik davrlari Nurotaning tog'li joylarida utganligi sabab yoki avvaldan iqtidor egasi bo'lganligimi? Turkman Esonov rassomchilikka qiziqishi yoshlikdan katta bo'lgan.

Turkman Esonov cho'pon oilasida tug'ilgan. Bolaligida kechalari cho'ponlar bilan yaylovda gulxan atrofida o'tirib, ularning qiziqarli hikoyalarini eshitar, miltillagan yulduzlarga uzoq-uzoq tikilar va tasavvuridagi turli-tuman jonivorlarning shaklini cho'p bilan yerga chizardi. Bu qiziqish asta-sekin bola qalbida haykaltarosh bo'lish orzusini uyg'otdi. Bu orzu esa o'rta maktabni tugatgan Turkman Esonovni Toshkentga yetakladi.

Ilk bor haykaltaroshlik san'ati sirlarini, ayniqsa, materialda obraz yaratishning nozik jihatlarini Toshkent Nizomiy nomidagi pedagogika institutining badiiy grafika fakultetida tahsil ko'rayotgan paytida ustози - respublikada xizmat ko'rsatgan sanat arbobi, taniqli haykaltarosh Abdumo'min Boymatovdan o'rgandi. U kompozitsiyalar kidirar, antik san'at namunalaridan ko'chirmalar qilsa-da, o'z xarakat va izlanishlaridan ko'ngli to'lmas edi.

I.Ye.Repin nomidagi SSSR Badiiy akademiyasining rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining haykaltaroshlik bo'limida bilim olish Turkman hayotida muhim voqeya bo'ldi. Shundan keyin 1973 yilda Sank petrburg shaxriga boradi va u yerdagi, sobik sovet davridagi Leningrad shaxridagi I.Ye.Repin nomidagi rassomchilik, haykaltaroshlik va me'morchilik institutiga uqkishga boradi.

«Xuddi shu dargoxda o'qiyotganimda Abdumo'min akadan o'rgangan - yog'och tanlash va uni chopish, materialdan o'rinli va unumli foydalanish yo'llarini o'zlashtirganligim juda qo'l keldi», deb eslaydi T.Esanov. U imkoniyati va mehnatsevarligi bilan SSSR xalq rassomi, professor V.V.Pinchuk e'tiborini va hurmatini qozondi. Shu ulkan san'atkor rahbarligida ishlagan «Inqilob tongi» mavzusidagi diplom ishi mutaxassislar tomonidan iliq kutib olindi va ularning yuksak baxosiga sazovor bo'ldi.

Bir qarashda uch figurali kompozisiya personajlari xarakatsiz, kotib qolganga o'xshaydi. Lekin asar zamirida yotgan g'oya va mazmun asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Asrlar bo'yi zulmat niqobi bo'lmish paranjini tashlagan ayol kiyofasida azob-uqubat, xo'rlanishning asorati sezilsa-da, uning shirin orzu og'ushida yangi erkin hayot nashidasini tuyayotganini ko'ramiz. Ayolning shijoatligi nigohidan bilimga-tashnalik, erkaklar bilan yonma-yon turib mehnat qilishga ishtiyoqni paykash mumkin. Zaxmatkash, hayotning achchiq-chuchugini tatigan kekxa dexkon, inkilob in'om etgan yerdan ufurib turgan hushbuy hidni to'ygan holda bahor tashvishlari bilan yashaydi. Yana bir obraz - tolmas bilakli, kuch-kuvvatga to'lgan zabardast yigit timsolida erk-huquqni, ozodlikni himoya qilishga qodir mehnatkashlar qiyofasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Personajlardagi dinamik xarakat kompozisiyani boyitib, davr nafasini berishga ham xizmat qiladi.

Diplom ishini muvaffaqiyatli bajarishda rahbar o'rnining qanchalik ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Shuning uchun ham fakatgina raxbarga suyanib ishlagan yoshlar keyingi mustaqil ishda qiynalib, ba'zilar esa butunlay ijodiy ish kilolmay qolishadi.

O'zlashtirilgan yuqori professional bilim, tinimsiz mehnat tufayli egallangan tajriba va individual qobiliyat T.Esanovning mustaqil ijodiy yo'lida qanot bo'ldi.

O'qishga muvafakiyatli o'tgach haykaltaroshlik bo'limida o'z mahoratini oshiradi. 1979 yilda o'kishni tugatadi.

Diplom ishini xam "Inqilob tongi" mavzusiga bag'ishlagan. Xaykaltaroshlik diplomini olgach yana O'zbekistonga qaytib Samarqand arxitektura qurilish me'morchilik institutining tasviriy san'at kafedrasiga ishga keladi.

Haykaltarosh Turkman Esanovning «Karvon», «Qizil qo'm», «Amir Temur», «Nurota», «Cho'pon qizi», «Sogdiana», «Akademik T.Shirinqulov buyusti» va boshqa ko'plab asarlarini yaratgan.

Inson tasavvurining shakllanib, ravnaq topishida uni o'rab turgan muhit katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bu jarayon tasviriy san'atga qo'l urgan kishilarning ijodida yaqqol seziladi. Bepoyon kum-ko'k yaylovlar maskani - go'zal Nurota tabiati, uning zahmatkash cho'ponlari, sarkash qo'zichoqlari-yu shux uloqlarining o'ynoqlashlari-haykaltaroshlikka mehr qo'yib, ilk bor bu sohada o'zini sinab kurayotgan yosh Turkman Esanovga muhitgina emas, uning kelgusi ijodiga manba ham bo'lib qoldi.

«Podachi bola» kompozisiyasidagi sodda yechim va harakatning aniq topilganligi asarni hayotiy, to'laqonli va original chiqishini ta'minlagan. Nisbiy va mutanosiblikning o'z me'yorida hal etilishi, plastik yechimning ravonligi hamda yuqori professional darajada bajarilishi, chorva manzarasi va chorvadorlar hayotini ana shu asar zamirida mujassamlashtirgan. Hayotdagi oddiy voqyealarning go'zalligini his etgan rassom o'z asarlarining jonli, ifodali chiqishiga erishadi.

«Cho'pon qizi» kompozisiyasida ulochasini mehr bilan bag'riga bosib turgan qizcha tasviri orqali haykaltarosh cho'ponlarning mashaqqatli mehnatini, o'z kasblariga bo'lgan mehrini ifodalab ko'rsatadi.

Haykaltarosh potret janrida ham samarali ijod kilib, zamondosh-larimizning yorqin, xis-tuyg'uli tasvirlarini rang-barang mavzularda ifodalamoqda. Kolxozchi, ishchi, xizmatchi va ziyolilarning portretlarida shaxs individualligi, orzu va

istaklari, ularning ichki dunyosi hamda his-xayajonlari plastik imkoniyatlarda berilgan.

Manzarachi rassom Rashid Temurov obrazining o'tkir nigoxida tabiatni lirik tuyg'u bilan kuylaydigan ijodkorning yaratuvchanlikka tashnalligi va tashvishlari yotadi. Fan muammolari haqida chuqur o'yga tolga professor O.Bozorov obrazida, aql-zakovatli va teran fikrli ziyolilarning xayoti, o'ylari, tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. «Kolxozchi Sulton bobo», «Xudoyberdi portreti» kabi obrazlar ham o'ziga xos plastik tili, sodda yechimi va haqqoniylik bilan alohida ajralib turadi. Muallif o'zi yaratgan obrazlarga samimiylik, insoniylik, olijanoblik tuyg'ularini singdirishga intilgan.

Real obrazlardan tashqari ideal obrazlar yaratib, portret funksiyasini mazmunli kompozitsion yechimga aylantirish T.Esanov ijodining yana bir noyob fazilatidan dalolat beradi. «Nurota» portretida nuroniy chol siymosi tasvirlangan. Haykaltaroshning bu asardagi yutuqi shundaki, u yog'och va ildizning tabiiy shakllaridan imkoni boricha unumli foydalanib, obrazning tabiiy va original chiqishiga erishgan.

Turkmanning tematik janrdagi asarlari ham bolaligidanoq o'ziga tanish cho'ponlar hayoti va mehnatiga bag'ishlangan «Suhbat» kompozitsiyasida turli muammolar borasida qizg'in gurgun qurgun cho'ponlarning jonli obrazlari tasvirlangan. Muallif bu asarida o'tkir ruhiy holat va yuksak emosionallikka erishgan.

Rus rassomlari R.R.Falk («Tuyalar. Samarqand». 1943), V.A.Favorskiy («Tuya bozori». 1944) asarlarida o'z ifodasini topgan. Sharq syujetlari haykaltarosh oromini buzmay qo'ymadi. Shuningdek, haykaltaroshning hajmi uncha katta bo'lmagan «Qizilqum» asari ham saratonning jazirama kunlarida oylab suvsiz yurgan tuya karvonlari va mashaqqatli iqlimda chiniqqan tuyakashlarning mashaqqatli mehnatlari haqida to'la-to'kis hikoya qiladi.

Samarqand davlat Arxitektura qurilish instituti maydonidagi Mirzo Ulug'bek haykali ancha yuksaklikda o'rnatilgan bo'lib, me'moriy kompleks bilan uygunligi o'ziga xos yechimda amalga oshirilgan. Ammo bu yechim buyuk olimdagi

sayyoralarini bilish, koinotga intilish tuyg'ularini gavdalandirsa-da, o'ziga mos muhit (kenglik)ni taqozo qiladi. Me'moriy kompleksning kelajakdagi rekonstruksiyasini hisobga olmagan holda xulosa chiqargan bo'lishimiz ham mumkin albatta.

Turkman ijodida shakllanib kurtak ochayotgan bu sohaning yana bir turimonumental xarakterdagi manzarali-ziynatli haykallar bilan istirohat bog'lari va maydonlarini bezashga qaratilgan. Uning Xudoyberdi Hakberdiyev bilan hamkorlikda yaratgan dekorativ haykallari Samarkand viloyat barkamol avlod bolalar markazi yangi bog'ida o'rnatilgan. Bejirim haykallar zamonamiz yoshlari uchun zarur bo'lgan muhitni yaratib, bolalar tasavvurini ertaklar dunyosiga yetaklaydi.

Tinimsiz ijodiy izlanishni boshidan kechirayotgan mehnatsevar Turkman Esanov ijodining bundan keyin ham tobora ravnaq topib borishini yakinda bulgan Toshkentdagi shaxsiy, ijodiy ko'rgazmasidan ham bilamiz.

2.2 Xaykaltaroshlik fanida ishlatiladigan o'quv qurollari va materiallaridan foydalanish.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida asosan ikki turdagi yumshoq va qattiq materiallardan foydalaniladi. Yumshoq materiallarga loy, plastilin, vosk kulolchilikda ishlatiladigan loylar kabi materiallar qattiq materiallarga esa yog'och, marmar, bronza va boshqa turdagi qattiq materiallar kiradi. Loy, haykaltaroshlikda ishlatiladigan asosiy yumshoq material hisoblanib, u yog'li yumshoq, ixtiyoriy, hajmdagi shaklga ishlov berilganda va quriganda ham o'z hajmini sezilarli o'zgartirmaydigan materialdir. Haykaltaroshlikda loy turlari juda ko'p lekin hammasini ham haykaltaroshlikda ishlatib bo'lmaydi. Loylarning ichida ko'kimtir kulrang rangidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki haykalning umumiy ko'rinishini yorug' soyalarini aniqlashda oson bo'ladi.

Plastilin (italyancha "PLASTILINA" yunoncha "PLASTOS") yasamoq haykaltaroshlikda ishlatiladigan sun'iy usulda tayyorlangan plastik massa bo'lib, uning loydan afzallik tomoni shundan iboratki u ochiq holatda ham qotib qolmaydi va doimo o'zining plastik holatini saqlab turadi. Uning noqulaylik tomoni ham

mavjud bo'lib, sovuqda qattiqlashib, o'ta issiq joyda esa erib yumshab ketadi. Uning tarkibida yog', vazelin va vosk bo'lganligi sababli plastilin bilan ishlangandan so'ng qo'lni poroshok, sovun bilan yuvish yoki nam latta bilan artish tavsiya etiladi. Plastilin loy, vosk, yog', vazelin, kulrang poroshok aralashmasidan tayyorlanadi va quyidagi miqdorda qo'shiladi: G'alvirda elangan loy va un xoliga keltirilgan tuproq – 1522 gr, mol yog'i yoki cho'chqa yog'i – 10 gr, vosk – 20 gr, texnik vazelin – 10 gr, kulrang poroshok - 122 gr. Plastilin tayyorlash uchun bo'larning hammasi bir xildagi massa xoliga kelguncha aralashtiriladi.

Gips (yunoncha GYPSOS) tabiatda oq rangli, rangsiz, temir okisi rangida, gipsli tosh ko'rinishida uchrab turadi. Kimyoviy toza gips tarkibida 22% suv bo'ladi. Gipsli toshni 120° dan 180° gacha qizdirganda gips o'z tarkibidagi 75% kristallangan suvni yo'qotadi. Qizdirilgan va yanchib elangan gips suv bilan aralashtirilganda u bilan birikadi hamda hajmi (1% gacha) kattalashadi. Gipsning eng muhim xossalaridan biri suv bilan birikib suyuq oquvchanlik xolatidan sekin asta bir me'yorda qotib borib qattiq massaga aylanadi. Gipsning to'la qotish muddati 20 minutni tashkil etadi. Gips asosan qolip olish va quyish ishlarida, ganchkorlikda, tekis yuza xosil qilishda ishlatiladi.

Yog'och. Haykaltaroshlikda asosan yog'ochning dub, yong'oq, chinor, o'rik, qarag'ay, tut kabi turlaridan foydalaniladi. Qattiq material tosh va marmardan ishlangan haykaltaroshlik ishlariga nisbatan yog'ochda turli hajmda, turli ko'rinishdagi kompozitsiyalar ishlash har-xil harakatlarni ifoda etish anchagina qulaydir. Yog'ochdan haykallar yasash uchun haykaltaroshga imkoniyatlar ko'p. Yog'ochdan ishlangan haykallarni tashqi muxitda yog'ingarchilik, namgarchilikda yemirilishi tufayli ularni yopiq binolar ichida saqlash maqsadga muvofiqdir.

Marmar. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ichida marmarda murakkab xarakatlarni ifodalash, turli noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun asosan umumiy ko'rinish yaxlik bo'lgan figuralarni, byust portretlarni ko'proq ishlanadi. Tabiatda marmarning turli xildagi mayda va yirik donali rang-barang turlari uchrab turadi.

O'zbekiston sharoitida marmarni G'azalkent, Nurota ochiq konlaridan xarsan toshlar ko'rinishida har xil rangdagi turlari qazib olinadi hamda ularga maxsus ishlov berilgandan so'ng qurilishda va boshqa sohalarda keng ko'lamda foydalaniladi. Haykaltaroshlikda qo'llaniladigan granit, siyenit, diorit, tuf, bazalt kabi materiallardir. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ham juda xilma – xildir. Ularning eng sarasi bronza bo'lib, ushbu materialdan haykaltaroshlikda asosan katta yodgorliklarni yaratishda foydalaniladi. Haykaltaroshlikda foydalanadigan bronza, cho'yan, po'lat, mis, alyumin, qo'rg'oshin va boshqa materiallarning afzalligi shundaki, ushbu materialdan ishlangan haykallar har qanday muhitga chidamli bo'ladi.

Mashg'ulotni boshlashdan avval dars uchun maxsus xona jixozlanishi zarur. Jihozlar mashg'ulotni metodik va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Xona keng derazali bo'lib, unga quyosh nuri chap tomondan tushishi zarur. Yorug'lik chap tarafdin tushib tursa, bolalarning ko'rish qobiliyati susaymaydi. Ularning umurtqa pog'onasi qiyshaymasligi uchun stol-stullar bolalarning bo'yi va yoshiga munosib bo'lishi zarur. Ustaxona doim quruq, toza bo'lishi, xarorati (18-20 gradus) saqlanish kerak. O'qituvchi talabalar ishi ustidan to'la nazorat qilib turishi va har bir talaba bilan individual ishlay olishi uchun xonada to'la imkoniyat yaratilishi lozim. Xonada haykallar ishlash uchun yog'och va temir dastgohlar o'quv qurollari va materiallar, ko'rgazma materiallar hamda talabalar ishlarini saqlash uchun shkaf yoki tokchalar bo'lishi zarur.

Talabalar mashg'ulot paytida gavdalarini to'g'ri tutib turishi yoki o'tirish hamda asbob-uskunalaridan foydalanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko'rsatiladi.

Haykaltaroshlik san'ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir-biridan farqini ko'rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmoskop, kinoprojektor va

diaproyektor, magnitofon, televizor, kompyuter va boshqalar kiradi. Haykaltaroshlik ustaxonasida bu vositalarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Texnik vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'quvchi-talabalarda san'atga katta qiziqish uyg'otadi, ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma'lumki, bular o'z navbatida mashg'ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko'rsatmalilik yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarda fikrlash, narsa va hodisalarni bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik yoki tafovutni aniqlash. O'tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Haykal ishlash uchun yaxshi sifatli oddiy qora qalam, sirkul, xar-xil steklar, bolg'a, bolta, arra, durodgorlik uskanalari, drel, elektor arra, perefartator, tosh o'yuvchi zubilalar bo'lishi lozim.

Odatda, haykal ishlash uchun loy, gips, oddiy va qimmatbaho toshlar, oddiy va qimmatbaho metallardan foydalanadilar. Bularning hammasini muallim ko'rsatib tushuntiradi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: kumush va bronza kukunlari, emulsiya, bo'yoq, mineral bo'yoq, moybo'yoq, fasadniy bo'yoqlari .

2.3 Haykaltarosh Turkman Esonov ijodini kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish shakl va metodikasi.

Xaykaltaroshlikga oid materiallarni ishlatish masalalarida Turkman Esonovning tajribasi o'rganildi. Bu masalalarni talabalarga mashg'ulot paytida gavdalarini to'g'ri tutib turishi yoki o'tirish hamda asbob-uskunalaridan foydalanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko'rsatiladi.

Dars mavzusi: Xaykaltaroshlik darslarini tashkil qilishda T.Esonovning tajribasiga tayanish.

Darsning maksadi. Ta'limiy: Talabalar, o'quvchilarni haykaltaroshlik san'ati bilan chuqurroq tanishtirish, mayda odam qismlarini bajarilishi texnikasini o'rgatish, texnik xavfsizlikka rioya qilish.

Tarbiyaviy maqsadi: Haykaltaroshlik san'atiga muxabbat, vatanparvarlik, estetik, milliylik g'oyalarini bolalar ongiga sindirish.

Dars jihozi: O'quvchilar uchun. Toza kichik doskacha, plastilin yoki loy, toza latta, steklar va boshqa haykaltaroshlik uchun lozim bo'lgan materiallar.

O'qituvchi uchun. Doska, bur, ko'rsatmali qurollar, texnik rasmni kattalashtiradigan apparatlar, ma'ruza, amaliy mashg'ulot ishlanmalari.

Darsning metodi: Aralash. (ananaviy va noananaviy usullar).

Darsning rejasi:

Tashkiliy kism. 2-3 daqiqa.

Ukituvchining kirish suzi, tanishuv. 7-10 dakika.

Mavzuning bayoni va mustakil amaliy ish. 70 dakika.

Uyga vazifa va darsni mustaxkamlash. 5-7 dakika.

Dars o'quvchilar bilan salomlashib, yo'klamalar qilinib boshlanadi. Har bir o'quvchini yangicha tanishuvga chorlash mumkin. Bunda sanashlar, kul tekkazib kurishish orqali bo'lish mumkin.

O'qituvchi kirish so'zida haykaltaroshlik san'ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir-biridan farqini ko'rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmskop, kinoprojektor va diaproyektor, magnitofon, televizor, kompyuter va boshqalar bilan tanishtiradi.

Haykaltaroshlik ustaxonasida bu vositalarning bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligi o'qtirib boriladi.

Darsning bayon qilinishida oldin texnik vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'quvchi-talabalarda san'atga katta qiziqish uyg'otadi, ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma'lumki, bular o'z navbatida mashg'ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko'rsatmalilik yordamida

o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarda fikrlash, narsa va hodisalarni bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik yoki tafovutni aniqlash. O'tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Haykal ishlash uchun yaxshi sifatli oddiy qora qalam, sirkul, har-xil steklar, bolg'a, bolta, arra, durodgorlik uskanalari, drel, elektor arra, perefikator, tosh o'yuvchi zubilalar bo'lishi lozim.

Odatda, haykal ishlash uchun loy, gips, oddiy va qimmatbaho toshlar, oddiy va qimmatbaho metallardan foydalanadilar. Bularning hammasini muallim ko'rsatib tushuntiradi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: kumush va bronza kukunlari, emulsiya, bo'yoq, mineral bo'yoq, moybo'yoq, fasadni bo'yoqlari.

Oddiy va murakkab shakldagi rozetka yasash jarayonini kuraylik. "Lola" va "Uzum" bargli rozetkadan qarab ishlash. Talabalar mashg'ulotni boshlashdan avval loyni yaxshilab aralashtirib pishirib oladilar. Rozetkalar bilan tanishadilar. Rozetkaga moslab taxtachadan tekis qilib karkas tayyorlab oladilar. Karkasni ustiga rozetkani kattaligi o'lchamida loy yopishtirib chiqadilar. Gips rozetka shunday balandlikda turish kerakki, ufq chizig'i uning qoq o'rtasidan o'tsin. Sizning bajarayotgan vazifangiz ham ana shu balandlikda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Talaba vazifani tik turgan xolda amalga oshiradi. Dastlabki bosqichda rozetkaning balandligini eniga nisbatini oladi. Rozetkani qalinligini belgilab olishdan iborat bo'ladi. Shuni alohida takidlash joizki gips rozetkani bajarishda karkas ustiga yopishtirilgan loyni tekis, silliq qilib chiqiladi. Bu shuning uchun zarurki, chunki notekis fonda rozetka qanchalik darajada moxirona tasvirlanmasin uning kompozision jozibasi ko'rinmay qoladi. Gips rozetkani tekislik yuzasiga yog'och, temir, steklar uchi bilan rozetka tasviri aniq tushiriladi. Rozetka kompozision to'g'ri joylashtirilib so'ngra uni yasashga o'tiladi. Bunda talaba vertikal, gorizonta va diagonal yordamchi chiziqlardan foydalanishi mumkin. Birinchi galda rozetkaning umumiy ko'rinishidagi hajmlari oz-ozdan loy yopishtirish yo'li bilan bajariladi. Shundan so'ng asta-sekin pardoatlanadi ya'ni tekislab chiqiladi.

Rozetkaning barcha elementlari va uning nisbatlari aniqlangandan so'ng, shakllarga ishlov berishga o'tiladi. Talaba ishlagan ishini tugatgandan so'ng bir bor uni haykaltaroshlikda ishlatiladigan sirkul yordamida o'lchab ko'rishlari lozim bo'ladi.

Murakkab rozetka "Uzum" bargini yasash. Haykaltaroshlik fani haykaltaroshlik san'atini kelib chiqishi uning tarixini talabalarga asar yaratishga bo'lgan nazariy va amaliy tomonlarini o'rgatadi. Yoshlar estetik jixatdan barkamol bo'lib yetishishlarida tasviriy san'atni xususan haykaltaroshlik va plastik anatomiyaning ahamiyati katta bo'lib talabalarda ko'rib eslab qolish, ijodiy tasavvur, estetik xis xayajon, inson va hayvonot olamining plastik anatomiyasi borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishda shuningdek ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ahamiyati behisobdir. Shu bilan birga haykaltaroshlik darslarida talabalarga qo'yiladigan talablar.

- Badiiy tafakkur ijodiy qobiliyati, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish.

- San'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni go'zallikka bo'lgan muxabbatni rivojlantirish.

- Milliy va jaxon haykaltaroshlik tarixiga oid ma'lumotni berish.

- Borliq obyektlarini loy va turli boshqa materiallar vositasida yasash qobiliyatlarini shakllantirish.

- Haykaltaroshlik va plastik anatomiya o'qitish metodikasining nazariy, amaliy metodik asoslari mazmun va mohiyatini o'rgatish.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida talabalar amaliy vazifalarni bajarishda taniqli haykaltaroshlarning turli janrda ishlagan asarlari bilan tanishib chiqadilar. Haykaltaroshlarning turli uslubi yo'nalishlarida ishlagan dastgoxli, monumental asarlari bilan tanishish jarayonlarida talabalar haykal ishlashning turli texnik usul va uslublari bilan tanishadilar. Ular quyidagilardan iborat: Haykaltaroshlikda dastlabki mashg'ulotlarda talabalar relyef ishlashning asosiy prinsiplari bilan tanishadilar.

- Tasvirni yuzada to'g'ri bajarilishiga e'tibor berish.

- Bajarilayotgan tasvirni yuzada kompozision to'g'ri joylashtirish.
- Fonga nisbatan relyefni pastki va yuqori nuqtalarini aniqlagan xolda tasvirni to'g'ri bajarish.

Bajarilayotgan relyefni butun bir yaxlitlikda ko'rib o'zaro nisbatlarini aniq belgilash va ishni mukammal bajarilishiga erishish. Talabalarga oddiy rozetkani ishlab bo'lgandan keyin murakkabroq rozetkani ishlashga o'tadilar.

Birinchi ishlagan ishlarini bajarishda loy tayyorlash, steklar bilan ishlash maxoratlari ancha muncha oshgan bo'ladi. Murakkab rozetka ya'ni "Okant" bargini ishlashda asosan razmerlari aniq olinib, taxtadan karkas yasaladi. Karkas tik xolatda joylashtiriladi. Unga 2-2,5 sm loy yopishtirib tekislab chiqiladi. tekislik ustiga rozetkani 1x1 razmerda Okant rozetkasini barglarini katta kichikligini bir-biriga nisbatlarini olgan xolatda chizma tasvirini tekislik yuzasiga tushirib oladilar. Bitta rozetka 4-5 ta talabaga mo'ljallab qo'yiladi. Birinchi bosqichda chizmaning ustidan sekin astalik bilan oz-ozdan loy yopishtirib chiqiladi. So'ng barglarning tuzilishiga e'tibor bergan xolda baland pastliklari bir-birining nisbatiga qarab ishlab boriladi.

Rozetkaning umumiy ko'rinishidagi proporsiyalar aniqlashtirilib tekislanadi. Xajmlarni baland pastliklariga e'tibor berib tekshirib chiqiladi. talabalar ishlarini yakunlagandan keyin uni baxolanadi.

Haykaltaroshlik san'at ham tasviriy san'at singari mustaqil yo'nalishga ega sahadir. Unda ham uzunlik, kenglik, balandlikka kabi nezmalar mavjud. Tasvirlanadigan narsani xajmli, o'lchovli qilib aks ettirish prinsipiga asoslangan san'at turi. Animal xaykallar deganda, asosan qush va hayvonlar haykalini ishlashni, Qushlar va parrandalarga burgut, kalxat, qirg'iy, lochin, zag'izg'on, kabutar, musicha, qaldirg'och boshqa qushlar kiradi. Parrandalarga turna, laylak, tovus, tuyaqush, pelikan boshqa parrandalar kiradi. Animal haykallarni ishlash jarayonida og'irlik markazi va muvozanat, nisbat kabi qonunlarni hisobga olgan xolda haykal eskizlarini ishlash maqsadga muvofiqdir.

Xayvon va qushlar, haykaltaroshlik asarlarida, asosan, 2 turda: hamma tomonidan ko'rish imkoni bo'lgan, mukammal shaklli xaykalga va bir

tomondagina ko'riladigan relyefga bo'linadi. Relyefning xajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha arxitektura (friz, fronton, plafon va boshqalar)da foydalaniladi. Relyefning past (barelyef), baland (gorelyef), tasvir fonda o'yib ishlanadigan xillari ham bor.

Mazmun va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (monumental, yirik haykal inshootlar-jamoat joylariga o'rnatiladi, hajmi yirik qilib ishlanadi. Monumental bezak haykaltaroshligi (binolar, turli inshootlarga, bog', park, maydon, yo'l va boshqa joylarda muxitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, xajmi xar xil: Badiiy fontanlar xam unga kiradi), dastgoxli haykaltaroshlik (xaykaltarosh dastgox ustida ishlaydi; Muzey, ko'rgazma zallariga, binolarning interyerlariga qo'yiladi, hajmi naturaga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko'riladi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (relyef, tasvirli plastinka), medal, tanga, o'yinchoqlar, o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jixozlar, qurol va idishlarga ishlangan shakl-tasvirlar, zagarlikda relyef xosil qilib tayyorlangan bezaklarga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qisman dastgoxli haykaltaroshlik asarlari san'at sinteziga xizmat qildiriladi. Kichik xaykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan. Haykaltaroshlik asari oldida turgan vazifaga qarab uning xajmi, materiali belgilanadi.

Haykaltaroshlik asarlari qadim zamonlarda, o'rta asarlarda, uyg'onish davrida (ayniqsa barokko uslubida) ko'pincha turli ranglarga bo'yalgan XIX-XX asrlarda, asosan, material rangli saqlandi yoki sidirg'a bo'yaladigan bo'ldi lekin antik san'atda Qadimgi Rimda, Uyg'onish davrida ayrim ulkan haykaltaroshlar material rangini saqlaganlar yoki nim rangga bo'yaganlar.

Haykaltaroshlikda foydalaniladigan asosiy materiallar: loy, mum, plastilin (haykaltarosh metall, yog'och steklar-qalamchalardan, halqalardan foydalanadi).

Bu materiallar chidamsiz, shuning uchun ham ko'pincha eskiz tayyorlanadi, yoki model ishlanib, undan olingan forma orqali gips haykal ishlanadi.

Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyuminiy), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib qotiriladi (boshqa materiallardan tayyorlangan modeldan forma-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berish, ishlov berish, berish haykaltaroshlik asari ishlanadi.

Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorim va boshqalar): suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib (bolg'a va yo'nadigan, kesadigan, o'yadigan asboblardan yordamida) tasvir ishlanadi. Yog'och odatda, nim rang bo'ladi.

Keramika (terrakota, chinni xillari) haykaltaroshlik asarlari maxsus tuproqdan qorilgan loyni shaklga solib, keyin xumdon, maxsus pechlarda sirlab qizdirib ishlanadi, ko'pincha sirlab turli rangga bo'yaladi.

Haykaltarosh asar yaratishga kirisharkan, naturani o'rganadi, unga qarab, kichik xajmda eskiz, etyudlar ishlaydi keyin shular asosida yirik hajmdagi asarni loydan tayyorlaydi (aylanadigan dastgox ustiga o'rnatilgan simlar, metall va yog'och tayyoqcha, taxtachalardan ishlangan sinch-karkasga loyni yopishtiradi va shakl xosil qiladi). Bu shakldan ikki yoki bir necha bo'lakdan iborat forma-qolip olinadi, qolipga gips quyish yo'li bilan haykali ishlanadi. Tosh haykal ishlanayotganda ana shu qismlar shakli aniq o'lchanadi, punktr mashina yordamida haykalning asosiy nusxasi tayyorlanadi. Gips modeldan foydalanib metal haykal qo'yish jarayoni juda murakkab, uzoq mehnat talab qiladi. Bu ish badiiy metall qo'yiladigan maxsus korxonalarda amalga oshiriladi. Haykaltarosh agar katta tajriba va mahoratga ega bo'lsagina yog'ochni yoki toshni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ishlashi mumkin .

Turna, laylak, tovuş, burgut va sher, yo'lbars, ot, kiyik haykallari ishlashda muvozanat qonunlarni qo'llanishi. Muvozanat – grekcha so'z bo'lib o'lchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Bir-biriga simmetrik o'lchovlarga misol keltiradigan bo'lsak tarozning pallasini ham bir-biriga nisbatan simmetrik joylashgan. Muvozanat mavzusi nihoyatda keng bo'lib uni vaqt va makondan cheklab bo'lmaydi. Insoniyat tarixi davomida deyarli har qanday sivilizasiyada fan,

san'at hamda intellektual faoliyatning boshqa turlarida, muvozanat muhim rol o'ynagan. Muvozanatni deyarli hamma yerda uchratish mumkin. Faqat uni qanday tushunish va izlanishni bilish lozim. Qadim zamondan ko'p xalqlar muvozanat haqida keng ma'noda muvozanat va uyg'unlik ekvivalenti sifatida tasavvurga ega bo'lganlar. Solishtirib bo'lmas darajada keng talqin qilingan muvozanat g'oyasini ko'pincha rangtasvirda, haykaltaroshlikda, kompozisiyada, musiqa va she'riyatda ko'rish mumkin. Muvozanatning ish faoliyati ko'pincha balet harakatlari bo'ysunadigan qonunlarni tashkil etadi, simmetrik harakatlar raqs asosida o'rin olgan. Insoniyat madaniyati uchun sabab va oqibatlar bog'liqliklari va muvozanatlarning ajoyib ko'rinishlari katta ahamiyatga egadir. Ularni anglab yetish uchun biz falsafa va tabiiy fanlarga murojat etamiz. Muvozanat mulohazalariga asoslangan nazariyalar insoniyat bilimining shu sohalarida ancha sezilarli rol o'ynaydi. Fan va san'atning ko'p sohalarida ifodalash va ko'rish shakllari muvozanatga tayanadi. Fanlarning alohida sohalarida yoki san'atning barcha turlarida muvozanat ularning o'ziga xos tushunchalarida va vositalarida namoyon bo'ladi. Ish faoliyatlari bo'yicha muvozanat bilan bog'liq bo'lgan odamlar ham uning namoyon bo'lish doirasi qanchalik keng ekanligini kamdan-kam tasavvur qiladilar.

Nisbat keng ma'noda noma'lum bir kattalikni boshqa ma'lum kattalikka nisbatlash orqali topish imkonini beradigan munosabatdir. Nisbat tushunchasi o'zining dastlabki ma'nosida ifodalanayotgan haykal uzunligining haqiqatda mavjud bo'lgan boshqa haykal, xudud, maydon uzunligiga nisbatini bildiradi. Nisbat sonlarda yoki ma'lum o'lchamdagi to'g'ri haykallar orqali ifodalanishi mumkin. Nisbat bo'lganligi tufayli biz haritalarni, tarxlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ushbu xolatda nisbat chizilgan jism o'lchamlari uning haqiqatdagi o'lchamlariga mos kelishi darajasini ifodalaydi. Inson ko'rayotgan biror narsaning kattaligini real sezish uchun uni yaxshi ma'lum bo'lgan boshqa bir narsa bilan aqlan solishtirib ko'rishi lozim. Kosmik stansiyalar tomonidan olingan Oy yuzasi suratlaridagi jismlarning o'lchamlarini nigohan aniqlashimizga imkon yo'q, chunki unda solishtirish etaloni bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ilgari bizga ma'lum

bo'lgan biror-bir buyum ko'zga tashlanmaydi. Shu sababga ko'ra baland tog' manzaralari tasvirlarida, dengiz ko'rinishlarida o'lchashning solishtirma birligi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ko'z o'rgangan biron-bir buyum bo'lmasa, o'lchamlarni va masofani sezish qiyindir.

Lab bulagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash metodikasi. David haykalining yuz bo'laklari. Lab bo'lagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni: Mikelandjeloning "Dovud" haykalini bosh bo'laklarini tasvirlash jarayonida kompanovka. simmetriya va assimetriya, marom, nisbat, xarakat, mutanosiblik, stilizasiya kabi mezonlarni xisobga olgan xolda lab bo'lagini plastlindan ishlash.

Mashg'ulotlarning jihozlanishi.

1. Xaykaltaroshlik tarixiga oid har xil plakatlari.
2. Xalq amaliy san'atiga oid foto namunalar.
3. Xalq amaliy san'ati ustalari haqida plakatlari, slaydalar.
4. O'quvchilarning ishlaridan namunalar.
5. Tarixiy arxitektura yodgorliklariga oid fotoplakatlari va slaydlari.
6. Haykaltaroshlik tarixiga oid adabiyotlar, albomlar, bukletlar va boshqalar.

Mashg'ulotlar o'tish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati beriladi:

1. "Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 1997 yil 2 aprel.

2. Boymetov B. Haykaltaroshlik. T.: 2001

3. Shobaratov P. Haykaltaroshlik. Ma'ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU ratapling 2001.

4. Jurnal "SAN'AT" 1999-2008 yillar.

5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, Mehnat, 1991.

Uyga vazifa sifatida chala qolgan ishlarni, haykaltaroshlikka doir materiallarni o'qib, yozib kelish topshiriladi. Mana shu kabi darsni olib

borganimizda. O'quvchilarning T.Esonovning haykaltaroshlik ishlariga qiziqish ortganligini kurdik.

Ikkinchi dars xam shuning davomi shaklida amaliy olib borildi.

Ko'z bo'lagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash. Ushbu mavzu asosidagi amaliy topshiriqni bajarishga kirishishdan avval har galgidek ko'z va uning anatomik tuzilishi bilan tanishib chiqiladi.

“Ko'z ko'ruv organi: ko'ruv nervlari bilan birgalikda ko'z kosasida yotadigan ko'z olmasidan, uni oldingi tomonidan himoya qilib turadigan ko'z qovoqlaridan ko'z olmasini harakatga keltiradigan ko'z muskullari va yosh apparatidan iborat”.

Ko'z olmasi sharga o'xshagan tuzilma bo'lib, devori uchta pardadan tashkil topgan. Tashqi pardasi - oqsil parda yoki sklera oq rangda yoshlikda ko'kimtir tusda bo'ladi, odam keksayganida sarg'ayadi. Sklera oldingi tomonda aniq shox pardaga aylanadi, shu parda orqali ko'z ichiga yorug'lik o'tadi. Sklera tagida tomirli parda bor, oldingi tomonda u rangdor pardaga aylanadi. Tomirli parda tagida to'r parda, ya'ni rang - tus va yorug'likni idrok etadigan hamma ko'ruv nervi bo'ylab sezgilarni miyaga o'tkazib turadigan sezuvchi apparat yotadi. Ko'zning oldingi bo'limida shox pardasining orasida rangdor pardasi, uning orqasida esa gavhar joylashgan.

Rangdor parda tik holda turadigan plastinka bo'lib, uning o'rtasida dumaloq teshigi, ya'ni ko'z qorachig'i bor. Rangdor pardada joylashgan muskullar ko'z ichiga o'tadigan yorug'lik miqdorini idora etib, ravshan yorug'likda ko'z qorachig'ini qoraytiradi va qorong'ulikda kengaytiradi. Ko'z gavhari ikki tomoni qavariq kichik shishachaga o'xshab ketadigan qavariq tiniq elastik tanadir.

Ko'zni xarakatlantiruvchi asosiy organ – bu uning atrofidagi muskullardir. Ularning funksiyalari haqida M.Rabinovich quyidagicha yozadi.

“Ko'z olmasini harakatlantiruvchi muskullar ko'z olmasiga turli tomondan kelib birikadi va shu yo'l bilan uning har tomonga qarab harakatlanishiga imkon beradi. Bu harakatlar ikkala ko'zda bir – biriga mos bo'ladi. Shunga ko'ra ko'z idrok etadigan tasvir yaxlit bo'lib chiqadi. Mana shu birlik buzilganida narsalar

ko'zga ikkita bo'lib ko'rinadi. Odam uzoqqa ko'z tikkanida ko'zlar to'g'ri turadi, yaqinga qaraganda, masalan, o'qish vaqtida ikkala ko'z oynasi o'rta chiziq tomon buriladi – ko'zlarni shu tariqa yaqinlashtirish konvergensiya deb ataladi”.

Ko'z qovoqlari ko'z olmasining oldingi yuzasida yotadi va ko'z olmasiga o'xshab shar sigmenti shaklida bo'ladi. Ko'zning tuzilishini, uning turli millat va irqilariga xosligini tasvirlashda qovoqlarning ko'rinishini to'g'ri ifoda etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'z qovoqlari o'rtasidagi oraliq, ko'z yorig'i yoki ko'z kesmasi deb ataladi. Ko'z olmasining oldingi qismi shu oraliqdan ko'rinib turadi. Ko'zning ichki burchagida ko'z yorig'i o'tkir burchak bilan tugallanadi. Ko'z qovoqlarining chetlarida ko'zni chang, shamol, tutundan himoya qiladigan kipriklar bo'ladi. Yuqori qovoqning cheti ko'z qorachig'i yuqori chetining damida turadi. Odam to'g'ri oldinga qaraganda pastki qovoq cheti rangdor pardaning pastki chekkasiga tegadi, lekin pastki qovoq o'z xarakatlariga ergashib bormaydigan bo'lgani uchun ko'z harakatlanganida bu holat o'zgaradi. Ko'z olmasi pastga burilganda pastki qovoq rangdor pardani past tomondan bekitadi, odam yuqoriga qaraganda rangdor parda bilan pastki qovoq o'rtasida oqsilli parda ko'rinib turadi. Aksincha yuqori qovoq ko'z olmasi harakatiga ergashib boradi va ko'zning odatdagi harakatlarida qovoqning tegib turadigan joyi bir xil bo'ladi va faqat mimika harakatlaridagina o'zgaradi.

Yuqori qovoqni maxsus muskul yuqori ko'taradi, bu muskul yuqori qovoqni ko'taruvchi muskul deb ataladi, pastki qovoq esa o'z og'irligi bilan pastga tushadi.

Ko'z ochilganida yuqori qovoq teparoqda yotuvchi teri ostiga kiradi, shu teri qovoq ustida yuqori qovoqni qoplab turuvchi burma hosil qiladi. Bu burma ba'zan arzimaz darajada, goxo sezilarli bo'ladi va qovoq chetidan bir muncha yuqoriroqda yotadi, ba'zida esa xususan mongoloid irqiga mansub odamlarga yuqori qovoq ustidan shuncha ko'p osilib turadiki, goxo qovoqning chetini ham berkitib qo'yadi, shunga ko'ra kipriklar burma tagidan ko'rinib turadi. Ayni vaqtda ko'zlar shishib chiqqandek bo'lib ko'rinadi va ko'z yorig'i tor bo'ladi. Bu

xususiyatlarni e'tibor bilan mukammal o'zlashtirib olish ayniqsa, istiqbolda portret ishlashda muxim hisoblangan jihatlardir.

Muskulning ko'z qovoqg'iga aloqador qismi qovoqlarda yotadi va juda ingichka bo'ladi. Uning tolalari qavariq tomoni yuqori tomonga va pastki qovoqda past tomonga qarab turadigan konsentrik yo'ylar xolida yo'nalgan. Qovoqqa aloqador qismi mustaqil qisqarish mumkin. Qisqarganda muskul tolalari rostlanib, qovoqlarning chetlarini bir-biriga yaqinlashtiradi va ko'zlar yumiladi. Bu xarakat aytarli kuch berilmaganda ham bajarilaveradi, masalan odam uxlab ketayotganida shunday bo'ladi.

Ko'zning doiraviy muskuli, ayrim-ayrim qisqarar ekan, tashqi tomondan ko'z qovoqlariga bosib, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bundan ko'z qovoqlari yumilmay turgan bo'lsa, ko'z qisiladi. Ko'zning doiraviy muskuli bir yo'la qisqarganida ko'z qovoqlari yumiladi, ko'z kosasiga aloqador qismi qisqarib, ko'z qovoqlariga bosadi, qovoqlar kuch bilan bir-biriga taqaladi, ko'zni qattiq yumib ochish deb shunga etiladi. Ayni vaqtda radiuslar ko'rinishida bo'ladigan ajinlar paydo bo'ladi, bular ko'zning tashqi burchagida ayniqsa, seziladigan bo'ladi.

Ko'z kosasiga aloqador qismining ustki yarmi ko'p zo'r bermasdan turib, aloxida qisqarishi mumkin. Uning qisqarishi qoshlarni to'g'irlab ko'zlar ustiga sal tushiriladi va odamning yuziga juda hayolga cho'mgan, fikrga to'lgan kishi ifodasini beradi. Muskulning bu qismi hayol surish muskuli deyiladi. Bu muskul qarama-qarshi yo'nalishda odam qoshiga ta'sir ko'rsatib, bir vaqtning o'zida peshon terisini tortib ajinlarni tekislaydi va chuqur hayol surish uchun kerak bo'ladigan xotirjamlik ko'rinishini beradi.

Amaliy mashg'ulotga kirishish oldidan ko'zning anatomik tuzilishiga oid nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, unda ko'rgazmali materiallardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shundan keyingina ko'zni amalda bajarishga kirishish mumkin.

O'tgan mashg'ulotlardagidek doskalar tayyorlab olish kerak bo'ladi. Ko'zni ishlashda uni qovoqlar bilan birgalikda ko'z kosasi chetlari orasidan chiqib turadigan sharsimon tana xosil qilishni esda tutish muximdir. O'rta chiziq o'tkazib

olish va ko'z yorig'i boshdan-oyoq smetrik emasligini esda tutib, ko'z bilan qovoqlarni shar tariqasida yasash kerak. Ko'z kosasining chetlari bilan birgalikda xajmga keltirib ishlanadi.

Ko'zlar ko'pincha unchalik smetrik bo'lmaydi, xamisha ham bir xil balandlikda yotavermaydi. Portretning xuddi mana shu sifatini payqab olish aksari o'xshashlik masalasini hal qilib beradi.

Qoshlar peshona suyagining cheti bo'ylab joylashgandir, lekin ko'pincha qiyshiq, yuqoriroq yoki patroqda yotadi. Shu sababli odam portretini ishlashda avval peshonaning shakli topib olinadi, keyin esa qoshlar joylashtiriladi. Xuddi ko'z yoriqlari singari o'ng va chap qoshlar ham ko'pincha past va baland bo'lib yotadi va xamisha ham smetrik bo'lavermaydi. Portretli byustlarni ishlaganda ko'zlarni rangiga qarab ko'z qorachiqclariga ishlov beriladi. Ya'ni ko'z qora rangda bo'lsa ko'z qorachig'ining o'rtasi chuqurroq qilib olib tashlanadi. Ko'kimtir rangdagi ko'zlarni qorachig'i ichiga dumaloq shaklda chizib oziroq chuqurlik hosil qilinadi. Yashil rangdagi ko'zni esa qorachig'i ichiga dumaloq shaklda chizilib o'rtasiga quyoshga o'xshagan shaklda chizib qo'yiladi.

Burun bulagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash. Ushbu mavzu asosidagi amaliy topshiriqni bajarishga kirishishdan avval burun va uning anatomik tuzilishiga to'xtalib o'tamiz.

“Burun-burun bo'shlig'i ustida ko'tarilib turadi. Yuqori qismi-peshanadan qanshar bilan ajralib turadigan burun ildizi, pastki qismi-burun uchi, o'rta chiziq bo'ylab tutashadigan va burun qirrasini tashkil qiladigan yon tomonlari farq qiladi”. Yon devori pastki tomonda kengayib, burun qanotiga aylanadi, burun qanoti yoki burun parragi bukilgan egatcha bilan yon devoridan va lunjdan ajralib turadi: O'ng va chap burun teshiklari tog'ay to'siq bilan bir biridan ajralgan. Burunning suyak asosini ikki yon tomondan esa yuqori jag' suyaklari, yuqori tomondan esa burun suyaklari hosil qiladi; Burun to'sig'ining ichkarisida ham suyak asos bor. Burunning oldingi qismida tog'ay asosi bor. Burun to'sig'ining suyagi oldingi tomonda tog'ay bilan to'lishadi, shu tog'ayga chap va o'ng tomondan ikkita uchburchak yon tog'aylar tayanib turadi. Bular burun yon

tomonlarining asosini hosil qiladi. Burun qanotlarida taqasimon shakldagi burun qanotlarining katta tog'aylari tog'ay asosi bo'lib xizmat qiladi. U tog'aylar qavariq tomoni bilan oldinga qarab yotadi, ularning ichki chetlari bir-biriga taqalib, burun to'sig'ining oldingi tog'ay asosini hosil qiladi (burun uchiga barmoq bosib ko'rilsa, mana shu tog'aylarning ikkiga ajralishini aniq sezish mumkin) taqa simon tog'aylarning tashqi chetlari burun teshiklarining chetini hosil qiladi va orqa tomonda, burun qanotining bag'rida yotuvchi talaygina mayda tog'aylar bilan to'lishadi.

Burun muskullari burunning qirrasiga egarga o'xshab yotadigan umumiy nayi bor. Bu muskullar ikkala tomondan pastga tushib keladi va burun yon yuzining terisiga tutashib ketadi. Mana shu ikkala muskul qisqarar ekan, burun terisiga uzunasiga ketgan burmalar hosil qilinadi, burun qanotlarini yuqori ko'taradi va burunni qiyshaytiradi. Burun to'sig'ini past tushiruvchi muskul bu jufti bilan yonma-yon yotib, o'rtadagi kurak tish ustida yuqori jag'ning alveolar o'chimtasidan boshlanadi va yuqoriga tomon borib, burun to'sig'iga tutashib ketadi. Bu muskullar burun to'sig'ini pastga tortadi va yuqori labning o'rtasini pastga tushirib, lablarni qisishga yordam beradi. Burun va uning anatomik tuzilishi haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lgandan keyin avvalgi mashg'ulotlardagidek, yog'och taxtachani dastgox ustiga tik xolatda o'rnatib, amaliy ishga tayyorlab olinadi. Ishni mustaxkamligini ta'minlash va qo'yiladigan loy bo'laklarini tushib ketmasligi uchun qo'shimcha kichik o'lchamdagi (+) plyus shaklidagi loy ushlagichlar taxtachaga osib chiqiladi. Undan keyin taxtachani suv bilan namlab olib, burun modelini yasash uchun loy asta-sekin yopishtirib, umumiy tekis yuza fon xosil qilinadi va (+) plyus shaklidagi loy ushlagichlarni tekis yuzadan chiqarib, keyingi bosqichda burunni loydan ishlanadigan hajmli shakli ichida umumlanishini hisobga olib qoldiriladi. Tayyorlangan yuzaga burunni hajmli shakli asosida kerakli loy bo'lagini yopishtirib bo'lgach, sirkul yordamida modeldagi burunning uzunligini, enini o'lchab ishingizga solishtirasiz va yon ko'rinishdan avval, bir tomondan keyin esa ikkinchi yon ko'rinishdan, pastdan, tepadan burunning qirralarini burun kataklarining aniq shakli topilguncha ish

davom ettiriladi. Keyin esa yon ko'rinishlardan ishlashga kirishiladi. Hamma hajmli shakllarni aniq ishlab bo'lingan ishni davom ettirib uni yon tomondan tushirilgan yorug'lik nuri yordamida xar-xil ko'rinish nuqtalaridan modelga solishtirib tekshirib, yasayotgan haykaldan qoniqish hosil qilguncha kamchiliklar to'g'irlab ishlab chiqiladi.

To'rtinchidan. Quloq bo'lagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash. David haykalining yuz bo'laklari. Quloq bo'lagini loy, plastilin yoki gipsdan ishlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mazmuni: Mikelandjeloning "Dovud" haykalini bosh bo'laklarini tasvirlash jarayonida kompanovka, simmetriya va assimetriya, marom, nisbat, xarakat, mutanosiblik, stilizasiya kabi mezonlarni hisobga olgan xolda quloq bo'lagini plastilindan ishlash.

Mashg'ulotlarning jihozlanishi:

1. Haykaltaroshlik tarixiga oid har xil plakatlar.
2. Xalq amaliy san'atiga oid fotonamunalar.
3. Xalq amaliy san'ati ustalari haqida plakatlar, slaydalar.
4. O'quvchilarning ishlaridan numunalar.
5. Tarixiy arxitektura yodgorliklariga oid fotoplakatlar va slaydlar.
6. Xaykaltaroshlik tarixiga oid adabiyotlar, albomlar, bukletlar va boshqalar.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining davomiyligini saqlash katta ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarning asosiy qismi uzgaruvchan xarakterga ega. Ularga aniq topshiriqlar berib T.Esonovning ustaxonasiga borishini maslaxat berish, haykaltarosh ishlari bilan tanishish lozimligini o'qtirish kerak.

Mashg'ulot o'tish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati berilishi mumkin.

Aytish lozimki, xaykaltaroshlik san'atining kadimiyligi va davomiy ekanligi bolalar xayotida uzgarishlar qilishi mumkin. Fakat to'g'ri tushunchalar olib borganda. Xaykaltaroshlik san'atining uta mashaqqatli va ko'p mehnat talab qilishi mumkinligini bolalar bilishi, ko'p o'qishi kerakligi, amaliy ishlarni ham tuxtovsiz olib borishi kerakligi o'qtirib borilishi lozim. Shundagina bolalarga haykaltaroshlik sohasiga qiziqishlar uyg'otish mumkin.

Umumiy xulosalar

Haykaltaroshlik san'ati to'g'risida gapirilganda Samarqandlik Turkman Esonovning ijodiy yo'li bolalarga ibratli ekanligini bilamiz. 1970-1980 yillarda haykaltaroshning urganish, o'qish davriga to'g'ri kelgan bo'lsa 1990 yillar yangi ijodiy imkoniyatlarga boy davr bo'ldi deyish mumkin.

Ana shu davrdan boshlanib milliy haykaltaroshlik mavqyeini mustahkamlash bosqichi boshlandi. Milliylik oldingi an'analarni o'zidan uzoqlashtirib mustaqil rivojlanish yo'liga o'tdi.

Maxobatli haykaltaroshlik avjiga chiqdi. Bu yo'nalishlardan kahramonimiz Turkman Esonov ham uzoq emas. Xozirga qadar milliy haykaltaroshlikda qo'yidagi:

- buyuk siymolar shaxsini sharaflash;
- shaxidlar nomini xotirlash;
- ramziy kompozisiyali ijodiy tamoyillar shakllandi.

Mustakillik haykaltaroshligi tarixiy janrda ko'proq ijod qilishga xarakat qildi. Mana shu davrda tayyorlangan haykallarni darslarda bolalarga taxlil qilib berish orqali davlatimizning mutabbar, buyuk shaxslariga hurmat oshiriladi. Shu kabi zotlarning obrazi haykaltarosh Turkman Esonovning ijodiga ham xos edi.

Tasviriy san'atning turlaridan bir bo'lgan haykaltaroshlik san'ati qadimdan tarixiydir. Uzoq yillarni bosib o'tgan bu san'at turi odamlarning xayot tarzi bilan birga rivojlanish bosqichlaridan o'tganligini bilamiz. Shunday bo'lsada davrlar o'tishi bilan u rivojlanib kelmokda. O'zbekistonda ham qadimdan haykaltaroshlik shakllangan. Tarixda aytilishicha budda, sanamlar haykalchalari qadimdan topilgan. Lekin uning zamonoviy ko'rinishlari keyingi vaqtlardagina shakllandi. Asosan O'zbekistonda bu san'at turining rivojlanishi XX asrning boshlanishidan keyin deyish mumkin.

Haykaltaroshlikka doir o'quv qurollari, ularning ishlatilishi, kerakli materiallar va ulardan foydalanish masalalari birinchi bobda yoritildi. Shuningdek, haykaltaroshlikning o'rganilishi uchun kerak bo'ladigan elementlarining bajarilishi

ham keltirib o'tildi. Agar haykaltaroshlikni o'rganish istagida bo'lganlar xuddi ana shularni oldin bajarib olishi kerakligi lozim.

Tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishi davomida haykaltaroshlik san'ati dunyoviy harakterga egaligi bilan qimmatlidir. Shuning uchun ham haykaltaroshlar ijodi doimo rivojlanishining olidida bo'ladi. Turkman Esonovning ijodi ham milliylik va zamonaviylik bilan yo'g'rilgan.

Agar Turkma Esonovning idodiy ishlarini darslarda, to'garaklarda tahlil qilib foydalanib borilsa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga katta foyda keltiradi.

Taklif va tavsiyalar

Haykaltaroshlik tarixida qadimdan uning shakllanganligini ko'ramiz. Miron, Poleklit, Mekilanjelo, Shuben, Tomskiy, Anikushen, Vechutich, Moor, Konenkov, I.Jabborov, A.Boymetov, D.Ro'ziboyev, Greshchenko, J.Quttimurodov va T.Esonovlarning asarlari o'tgan davr bilan hozirgi davr o'rtasidagi bir kuprik vazifasini o'taydi. Bu haykaltaroshlarning ijodiy ishlari o'z davrining yetuk rassom haykaltaroshlari sifatida tan olingan. Endi haykaltaroshlarning ijodiy yo'llarini va asarlarini o'rganish davri keldi. Buning uchun biz quyidagi taklif va tavsiyalarni beramiz.

1.Tasviriy san'at darslarini olib borishda yetuk haykaltaroshlar qatori o'zimizning davlatimiz haykaltaroshlari ijodini ham o'rganish lozim. Shuning uchun ham Turkman Esonovning ijodiy faoliyati bunga yaxshi bir manba bo'lib hisoblanadi.

2.Turkman Esonovning asarlarini darslar jarayoniga olib kirish kerak.

3.To'garaklar ishini tashkil etish va unda Turkman Esonovning ijodidan foydalanish va asarlarining taxlilini bolalar bilan ko'rib o'tish davr bilan bog'lab borish va o'rganish kerak.

4.Haykaltaroshlar ijodidagi barcha asarlarning shu zamonasiga moslik darajasini o'rganish va hozirgi haykaltaroshlik asarlari bilan bog'lash lorzim.

5.Biz o'rgangan asarlarni va haykallar tarixiy taraqqiyotini tasviriy san'at darslariga to'la olib kirish uchun vaqt yetdi. Ularning illyustrasiyalarini va

asarlarning kichik variantlarini darslarga kiritish, shunday kichik hajmdagi asarlarni ko'chirish mumkin.

6. Tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda Turkman Esonovning ijodi va asarlarining tahlillaridan dars dasturlariga ham kiritish vaqti keldi. Bunga haykaltaroshning asarlari ruyhati va illyustrasiyalarini ko'paytirish kerak.

Mana shu aytgan taklif va tavsiyalarni tasviriy san'at darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayoniga olib kirish foydadan xoli bo'lmaydi.

IBORALAR LUG'ATI (GLOSARI)

XAYKAL – tasviriy san'at asari. Tosh, yog'och, suyakni, yo'nib, myetall, byeton, gipsni iolipga iuyib, iotirib, loyni shaklga solib, kyeyin iizdirib (sopol, chinni haykalchalar tayyorlashda) ishlanadi. Monumyental (ochii havoda, ko'pchilik e'tiboriga havola qilinadigan), dastgohli (binolar ichida o'rnatiladigan), byezak (arxityekturada bog'-parklarda)- juda kichik hajmda ishlanadigan uy ichida byezak vazifasini o'taydigan xillari bor).

Haykaltaroshlik - Tasviriy san'atning turlaridan biri.

Bu san'atda borliq yorug' - soyaga yega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Turli xildagi stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning de-vorlariga, nihoyat turli amaliy buyumlar - tanga, znachok, medallarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Avtoportret — portret janrining ko'rshshshlaridan biri bo'lib, ras-■somning o'z ko'rinishini o'zi ishlagan rasmlar.

Amaliy grafika — grafika san'atining turlaridan biri. Turli xil-dagi yetiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.

Animalist (latin. «animab — hayvon) — hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.

Antika (latin. «qadimgi») — Urta yer dengizi hamda Qora dengiz so-hillarida yeramizdan oldingi 3000 yillardan to yangi yeraning V asri o'rtalarigacha mavjud bo'lgan quldorlik davlatlari madaniyati va san'a-tini ta'riflash tushuniladi.

Badiiy obraz. San'atning o'ziga xos spesifik tomonlaridan biri shu-ki, unda real borliq badiiy obrazlarda namoyon bo'ladi. Badiiy obraz real voqyelikning ijodkor tomonidan o'zlashtirilgan va qayta materiallashgan ko'rinishidir. Masalan, rassom voqyelikni tasvirlaganda, uni aingan o'ziga o'xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi, aksincha shu kurinish uning uchun o'z fikri, his-tuyg'usi, o'ylarini ifodalashga vosita bulib xizmat qiladi.

Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri-dir. Bu san'atga oddiy qora qalamda chizilgan surat, tematik kompozi-siyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli badiiy chizma va bezak rasmlar, plakatlar, gugurt qutichasiga ishlangan suratlar, yeti-ketkalar, turli xildagi markalar kiradi. Grafika san'atiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, unda voqyelik, asosan, turli uzunlik va qalinlikdagi chiziqlar yoki oq-qora bo'yoqlar yordamida aks yettiriladi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatidan uncha katta bo'lmay, ko'p hol-larda qog'ozga ishlanadi.

Dastgoh grafika. Mustaqil xarakterga yega bo'lgan, o'zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g'oyalarni ilgari suradigan grafika asarlari.

Janr (fransuz. tur ko'rinish). Tasviriyl san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks yettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Masalan, manzara, tabiat ko'rinishlarini aks yettiradigan rasmlarni manza-ra janriga oid rasmlar deyiladi. Alohida yoki' odamlar to'pini aks yet-tiradigan rasmlar yesa portret janridagi rasmlar deyilsa, meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks yettiruvchi rasm-lar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va h. k.

Illyustrasiya — kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko'rinishla-ridan biri bo'lib, biron-bir tekst yoki hikoya bilan bog'liq bo'lgan, shu hikoyadagi biron-bir lavhaning ko'rinarli tasvirini aks yettiradigan rasmlardir.

Interer (frans.) — binolarning ichki qismi.

Keramika (grek.— loydan qilingan, kulolchilik) — kulolchilik san'-ati va undan tashqari, tabiiy loydan ishlangan buyumlar.

Kitob va gazeta-jurnal grafikasi. Grafikaning bu turi dastgoh gra-fikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog'liq bo'ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to'laroq ochish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetaning ichki hamda tashqi tomoniga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi.

Kompozisiya (latin. «compositio» — tuzilish, qurilish) — badiiy asar-dagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning munofiqligi.

Plastika— 1. Haykaltaroshlik. 2. Silliq, mayin, yegiluvchan.

Peripter — hamma tomondan ustunlar bilan o'ralgan aylana yoki to'rt-burchak shaklidagi antik ibodatxona.

Pilyastr — devorning ishlov berilgan kapitel va bazali ustunga o'x-shash, tekis to'rtburchak shaklidagi bo'rtgan joyi.

Rangtasvir — Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chi-zilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari. Bu san'atda rang muhim o'rin-ni yegallaydi va uning xarakterli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o'tasa, rangtasvirni yesa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Rassom rang orqali borliqni ko'rinarli obrazlarda tasvirladi, ma-konning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikni, hajmini ko'rsatadi.

Rassomlik — rangtasvir tushunchasi ba'zi adabiyotlarda rassomchilik (rassomlik), nafis san'at, jivopis deb berilgan. Biz rassomlik ibora-sini ishlatganda, umuman, rassomlar ishlagan suratlarni — rangtasvir va grafikani nazarda tutamiz.

Ritm — yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dina-mik qaytarilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavsizlikga taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T."O'zbekiston" 1997 yil 137 bob.
2. "Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 1997 yil 2 aprel.
3. Boymetov B. Haykaltaroshlik. T.: 2001
4. Shobaratov P. P. Haykaltaroshlik. Ma'ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU ratapling. 2001.
5. Jurnal "SAN'AT" 1999-2008 yillar.
6. Xasanov R.X. Tasviriy san'at asoslari. – Toshkent, G.Gulom. 2004.
7. Isokova M., R.Xasanov va b.Tasviriy san'at. 3-sinf. "Yangi yul poligraf servis". 2010. 142b.
8. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, Mehnat, 1991.
9. Pulatov D. Mustaqillik davri haykaltaroshligi. (haykaltarosh I.Jabborov ijodi misolida) // Guliston. –Toshkent, 2004.-№2.-B.10-11.
10. O'zbekiston san'ati. Avtorlar jamoasi. T.: Uzbekiston. 2001.
11. Jurayev X. Serkirra ijod samarasi. "O'zbekiston san'ati". 1986. №3. 24-b.

12. Shakirova N. Negromkaya simfoniya dushi. Gazeta materiali. 5 aprel, 1986 yil.

13. Bobojonova G. Sintez iskusstv na sovremennom etape (tendensii i razvitiye). T. 2001.

14. Toktosh R. Respublika ikkinchi kaykaltaroshlik kurgazmasi: izlanishlar, samaralar // Sovet Uzbekistoni san'ati.-Toshkent, 1979.- B. 6-7.


Internet saytlari

1. www.ziyo.net
2. www.edunet.uz
3. www.bilimdon.ru.
4. www.bilimdon.uz.
5. www.technol.student.ru


Ilovalar



Turkman Esonov ish ustida



Cho'pon bobo haykali



Alisher Navoiy buyusti

SamDU “Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta’limi” fakulteti
«5140700 - amaliy sanat» yo’nalishi 405-guruh talabasi Bozorov Komilning
«Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar
kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishiga ilmiy rahbari t.f.n. dotsent M. Umarovning

M u l o x a z a s i:

Fakultet: Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta’limi:

Kafedra: «Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi»:

Ixtisosligi: Amaliy san’at

Mavzusi «Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi».

Bitiruv malakaviy ishdagi mazmun va maqsad hamda vazifalari tuzilishiga mos keladi. Har bir qo’yilgan vazifalar va maqsadlar amalga oshirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni belgilangan talablarga mos keladi. Ilmiylik darajasi ancha yuqori, chunki ishda ko’pgina ilmiy manbalar tahlil qilingan, chizmalar, rasmlar sharhlangan, mavhumliklarga yo’l qo’yilmagan, amaliylik darajasi ham yaxshi yoritilgan, chunki umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi tasviriy san’at, pedagogika kollejlardagi va oliy o’quv yurtlaridagi «Tasviriy san’at va amaliy san’at» fanlari o’qituvchilari, metodistlari hamda ushbu yo’nalishlarda o’qiyotgan talabalarga mo’ljallanganligi aytib o’tilgan. Ishda bir qancha adabiyotlar tahlil qilingan, tajriba-sinov ishlari qoniqarli o’tkazilgan, ma’lumotlar tushunarli tarzda keltirilgan. Ishda chiqarilgan xulosalar va tavsiyalar umumiy o’rta ta’lim maktablari, pedagogika yo’nalishlaridagi kasb-hunar kollejlari tasviriy san’at va amaliy san’at yo’nalishlari, oliy o’quv yurtlaridagi tasviriy san’at va amaliy san’atni o’qitish metodikasi sohalari o’qituvchilariga ham amaliy faoliyatida foydalanishlari uchun ham ahamiyatlidir.

Bitiruv malakaviy ishda Haykaltaroshlik san’atining tarixiy taraqqiyoti, jahon xalqlari haykaltaroshlik san’ati tarixi, qadimiy va zamonoviy O’zbekiston haykaltaroshlik san’ati, haykaltarosh Turkman Esonov ijodiy yo’li haqida ma’lumotlar berilgan. Bozorov Komilning bitiruv malakaviy ishi ma’lum mantiqiy, ketma-ketlikda, grammatik, stilistik jihatdan savodli yozilgan. Belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan. Bitiruv ishi tugallangan hisoblanadi va ijobiy xulosaga ega, uni muhokamalarga va ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

T.f.n. dots.

M. Umarov

SamDU “Musiq, badiiy grafika va mehnat ta’limi” fakulteti «Amaliy san’at» yo’nalishi talabasi Bozorov Komilning «Haykaltarosh Turkman Esanov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga 1-son pedagogika kolleji “Tasviriy san’at” kafedrasida o’qituvchisi Ya.Norbekova tomonidan

T a q r i z

«Amaliy san’at» yo’nalishi talabasi Bozorov Komilning «Haykaltarosh Turkman Esanov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi to’liq asoslangan. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari: Haykaltaroshlik san’atining tarixiy taraqqiyotini yoritish, Haykaltarosh Turkman Esanov ijodini o’rganish va kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasiga doir samarali usullarini ishlab haykaltaroshlikni takomillashtirish, Haykaltaroshlikning rivojlanishi bosqichlarini o’rganish. Talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko’rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san’at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, inson, qush va hayvonlar haykaltaroshlik asoslari bilan tanishtirish, haykaltaroshlik o’qitish metodikasining nazariy va metodik asoslari mazmun va mohiyatini o’rganish, Haykaltarosh T.Esonovning ijodiy ishlari bilan o’quvchilarni tanishtirishdan iborat.

Ishning barcha qismlari ana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ishda Haykaltarosh Turkman Esanov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi batafsil keltirilgan. Bozorov Komilning bitiruv malakaviy ishi O’zbekiston Respublikasi OO’MTV ning ushbu mazmundagi ishlariga qo’yilgan talablariga javob beradi. Ishda ba’zi grammatik, orfografik kamchiliklarga yo’l qo’yilgan bo’lsada, tugallangan ish hisoblayman. Bitiruv malakaviy ishni muhokamalarga, himoyaga va amaliyotga joriy etishga tavsiya etaman.

1-son pedagogika kolleji

“Tasviriy san’at” kafedrasida

**SamDU “Musiq, badiiy grafika va mehnat ta’limi” fakulteti
«Amaliy san’at» yo’nalishi 405-guruh talabasi Bozorov Komilning
«Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-
hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi» mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga «Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi»
kafedrasi mudiri, katta o’qituvchi D. Ergashev tomonidan**

T a q r i z

Bozorov Komilning «Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi quyidagi qismlardan tuzilgan: Kirish, 2 bob, 6 ta fasl, xulosa, taklif va tavsiyalar, izoxli lug’at, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovalar qismlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida Haykaltaroshlikning kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasi tarixi yoritib berilgan.

Haykaltaroshlikning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati ochilgan, Haykaltaroshlikning o’ziga xosligi belgilangan, Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o’quvchilariga o’rgatish metodikasiga doir darslarining turli yo’llari va usullari ko’rsatib o’tilgan.

Bozorov Komilning ushbu bitiruv malakaviy ishi mazkur toifadagi ishlarga qo’yiladigan talablarga mos keladigan holda yozilgan va rasmiylashtirilgan. Ishning metodikasidan o’qituvchilar, metodistlar, o’quvchilar amaliyot davrlarida foydalanishlari mumkin. Ish mustaqil bajarilgan, tugallangan, muhokamalarga va himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

**SamDU “Badiiy grafika va uni o’qitish
metodikasi” kafedrasi mudiri,
katta o’qituvchi:**

D. Ergashev

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti, "Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi" kafedrası
2014-yil 20-maydagi yig'ilishining 10-sonli bayonnomasidan

Ko'chirma

Samarqand sh.

Qatnashdilar: Fakultet dekani dots. Sh.Aminjonov, Kafedra mudiri kat.o'qit. D.Irgashev, O'quv ishlar bo'yicha dekan muovini N.Tug'izov, dots. M.Umarov, prof. E.Muxammedov, dos. X.Jurayev, dos. B. Qulnazarov o'qituvchilar B.Muxtorov, I.Izbosarov, Sh.Oydinov, D.Omonov, E.Shavqiyev, N.Mo'llajonova, Sh.Jumayev, T. Qo'shatov, J.Xoliqov, Z. Istamov, B. Xujamurodov texnik xodimlar va bitiruvchi talabalar

K U N T A R T I B I:

2. Kafedrada talabalarning taqvimiy, ijodiy, kurs ishlari va BMI larning bajarilishi haqida.

Yig'ilishning borishi:

2-masala bo'yicha kafedra mudiri D.Irgashev so'zga chiqib, kafedra a'zolarining 2013-2014 o'quv yilida 51 nafar talabaning BMI lariga rahbarlik qilish, ularni bajarish, tahrir qilish va himoyaga tayyorlash lozimligi aytiladi.

Yuqoridan kelib chiqib, kafedra yig'ilishi qaror qiladi:

1. Tayyorlangan BMI larning dastlabki ko'rigi va muhokamasi o'tkazilgan deb hisoblansin.

2. BMI lar matnlari ko'rsatilgan 17 ta mezon asosida va qo'shimcha hujjatlar 13 ta ekanligi ta'kidlansin va asosiy himoyagacha ko'rsatilgan kamchiliklar tuzatilsin.

3. Talaba Bozorov Komilning "Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonaviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga t.f.n. dots. M.Umarov ilmiy rahbarligida tashqi taqrizchi, 1-son pedagogika kolleji "Tasviriy san'at" kafedrası o'qituvchisi Ya.Norbekova va ichki taqrizchi kafedra mudiri D. Irgashev belgilansin. Ishni ko'rib chiqilgan deb hisoblansin va asosiy ochiq himoyaga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi, kafedra mudiri:
Kotibi:

D.Irgashev
B.Xujamurodov

**Alishyer Navoiy nomidagi Samarqand davlat univversityeti Musiqa, badiiy
grafika va myehnat ta'limi fakultyeti bitiruvchisi Bozorov Komilning
5142000-Amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «
Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar
kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi» mavzusida bitiruv malakaviy
ishining
Annotasiyasi**

1. Mavzuning dolzarbligi: Xaykaltaroshlikni urganishda talaba qalamtasvir, rangtasvir fanlaridan amaliy ishlarni bajarish jarayonida olgan bilim, kunikma va malakalariga tayanadi. Shuningdek, talaba haykaltaroshlikning kelib chiqish tarixi va rivojlanishini urganishi, uning qonun-qoidalarini bilishi, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchisini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda xam ahamiyatlidir.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. San'at kollejlarning xaykaltaroshlik mutaxassislari tayyorlaydigan bo'limlari ham bor. Haykaltaroshlikni ukitish va bu masalalar bilan metodist olimlar shug'ullanishgan. S.Bulatov, Q.Qosimovlar amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ishlar olib borgan.San'atshunos olimlardan R.Toktosh, A.Xakimov, E.Xujayeva, B.Bobojonova, I.Umarovlar tomonidan urganilgan. Haykaltarosh Turkman Esonovning ijodi bo'yicha olim X.Jurayev o'rganib o'zining maqolalarining chop etgan.

Xaykal'toroshlik masallariga bagishlangan katta ishlar avvaldan Mikelanjelo, E.Fal'kone, Vuchetich, I.Jabborov, E.Aliyev, R.Mirtojiyev va boshka kuplab xaykaltaroshlar bilan boglik.

Maqsadi: Haykaltaroshlik san'atining tarixiy tarakkiyotini yoritish, Xaykaltarosh Turkman Esonov ijodini urganish va kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir samarali usullarini ishlab xaykaltaroshlikni takomillashtirish.

Vazifalari: – Xaykaltaroshlikning rivojlanishi bosqichlarini urganish. Talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobilyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni

shakllantirish; san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish;

- borliq obyektlarini loy va turli boshqa materiallar vositasida yasash jarayonida haykaltaroshlikga tayanish; inson, qush va hayvonlar xaykaltaroshlik asoslari bilan tanishtirish;

- haykaltaroshlik o'qitish metodikasining nazariy va metodik asoslari mazmun va mohiyatini o'rganish. Xaykaltarosh T.Esonovning ijodiy ishlari bilan ukuvchilarni tanishtirish.

Obyekti: Haykaltaroshlik san'ati va xaykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish jarayoni.

Predmeti: Haykaltaroshlik san'atining rivojlanish davri, Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish dars va darsdan tashkari ishlar.

Metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

Ilmiy faraz: Agar;

- Haykaltaroshlik tarixini urganib Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi qonuniyatlariga amal qilinsa;

- Haykaltaroshlikning zamonoviy va uning tarixiy taraqqiyotini o'rganilsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olinsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining o'ziga xosligi tomonlari anglansa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga amal kilingan xolda ish yuritilsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodidan kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish uchun undan dars jarayonida foydalanilsa.

Amaliy ahamiyati:

- Haykaltaroshlikning kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi tarixi yoritib berilgani.

- Haykaltaroshlikning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ochilganligi.

- Haykaltaroshlikning o'ziga xosligi belgilandi.

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir darslarining turli yo'llari va usullari ko'rsatib o'tildi.

Nazariy axamiyati. Urganilgan natijalar xaykaltaroshlik san'ati tarixidagi urnini kengaytirib, zamonoviylik bilan uni belgilash, nazariy masalalarni tushunib yoritish bilan bog'lik. Xaykaltaroshlik san'atining ma'ruzalarida, amaliy mashgulotlarda mutaxassislik fanlarda amaliy foydalanish mumkin.

Yangiligi: Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikada birinchi marotaba dars jarayoniga olib kirilmokda. Xaykaltaroshning ijodiy ishlari bilan xaykaltaroshlik tarakkiyoti uygunlashtirilganligi.

Tajriba – sinov ishlari. Samarkand davlat arxitektura kurilish me'morchilik instituti, tasviriy san'at yunalishi bulimi, Samarkand shaxar rassomchilik san'ati kolleji, san'at maktabi, 1-son pedagogika kollejining tasviriy san'at darslarida olib borildi.

Kullanilish soxasi. Barcha xaykaltaroshlik darslari, tugaraklarni olib boradigan maktab, kollej, oliy ta'lim tasviriy san'at yunalishlarining nazariy va amaliy darslarida foydalanishlari mumkin.

Tuzilishi: Kirish, ikki bob, olti fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxati va ilovadan iborat bo'lib 56 betni tashkil yetadi.

Ilmiy rahbar p.f.n. dots.

M.Umarov

Talaba:

K.Bozorov

Assalomu alaykum hurmatli yakuniy davlat attestasiya komissiyasi raisi!
Muhtaram yakuniy davlat attestasiya komissiyasi a'zolari!

Bizni bitiruv malakaviy ish mavzusi **«Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi»** deb ataladi.

Muammoning dolzarbligi quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllanayotgan sharoitda yoshlarning mehnat va kasblarga tayorgarligi, tarkibi, ta'limi jarayonini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Haykaltaroshlik tasviriy san'at turkumidagi predmetlardan biridir. Talaba inson bilan bog'lik ijodiy yulini san'at asarlariga xam kuchirish xususiyatiga ega. Xaykaltaroshlikni urganishda talaba qalamtasvir, rangtasvir fanlaridan amaliy ishlarni bajarish jarayonida olgan bilim, kunikma va malakalariga tayanadi. Shuningdek, talaba haykaltaroshlikning kelib chiqish tarixi va rivojlanishini urganishi, uning qonun-qoidalarini bilishi, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchisini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda xam ahamiyatlidir.

Kollejlarda tasviriy va amaliy san'at predmeti o'quvchilarni rasm chizishning yelementar asoslari bilan tanishtirish va badiiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga yega. Shu jumladan xaykaltaroshlik xam shunday axamiyatga molikdar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Bizdan ozod va obod Vatan kolsin" nomli asarida ma'naviy kadriyatlar insonning mustaxkam poydevori bulishi kerakligini kup bora ta'kidlab utadi. Aytgan ediki: - "Uta ukimishli, ruxan bardam va jismonan bakuvvat kishilargina istiklol va tarakkiyot yulini bosib uta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalkimizning ma'naviy kadriyatlari iktisodiy uzgarishlarimizning mustaxkam poydevori bulib xizmat kiladi". (Uzbekiston iktisodiy siyosatining ustivor yunalishlari // Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. 2.-T., 1996.-13-b.

Respublikamiz davlat ta'lim standarti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2002 yil 21 fevral 54 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan standart kasb- hunar va oliy ta'limga ham joriy yetilgan. Shu kabi umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta'lim standartlari ham 1999 yil 16 avgustda hamma ta'lim muassasalariga joriy qilingan yedi. Xaykaltaroshlikni ukitishning DTS'lari xam ta'lim samaradorligini oshirish va barkamol avlod ta'lim – tarbiyasiga karatilgan.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Xaykaltaroshlik masallari tasviriy san'at predmetining asosiy bir qismi xisoblanadi. Kollejlarda xaykallar yasash kupincha tugarak mashgulotlarida olib boriladi. Bularning xammasi xam rasm chizish va uning metodikasi masallari bilan ko'prok boglik. San'at kollejlarning xaykaltaroshlik mutaxassislari tayyorlaydigan bo'limlari ham bor. Haykaltaroshlikni ukitish va bu masalalar bilan metodist olimlar shug'ullanishgan. Shulardan professor R.Xasanov, M.Nabiyev, B.Oripov, B.Azimova, B.Boymetov, N.Tolipov, R.Rajabov, D.Irgashev, X.Egamovlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini o'z asarlarida yoritgan bo'lib professor S.Bulatov, Q.Qosimovlar amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ishlar olib borgan.San'atshunos olimlardan R.Toktosh, A.Xakimov, E.Xujayeva, B.Bobojonova, I.Umarovlar tomonidan urganilgan. Haykaltarosh Turkman Esonovning ijodi bo'yicha olim X.Jurayev o'rganib o'zining maqolalarining chop etgan.

B.Bobojonova oldingi davrda urnatilgan ikkinchi jaxon urushi kurbonlariga atab bunyod etilgan xaykallarning badiiy salmogini tadmik kilib, saviyali yodgorliklar bilan birga, ijodiy muammolarga xam e'tiborini karatadi. Xaykalltoroshlik masallariga bagishlangan katta ishlar avvaldan Mikelanjelo, E.Fal'kone, Vuchetich, I.Jabborov, E.Aliyev, R.Mirtojiyev va boshka kuplab xaykaltaroshlar bilan boglik. Xaykaltaroshlik darslari soatini utkazish metodikasi va uni o'qitish masalalari bo'yicha rus rassom va metodistlaridan professor V.S.Kuzin, I.I.Shoroxov, N.N.Rostovsev, B.P.Yusov, B.M.Neminskiy, T.Ya.Shpikolovalarning ko'plab asarlari mavjud. Shuningdek, kasb - hunar ta'limiga oid xaykaltaroshlik masalalari bilan olimlardan B.Boymetov,

A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov kabilar metodik jixatdan urganishgan. Shunday bo'lsada mustaqilligimizdan so'ng yaratilgan tasviriy san'atning xaykaltaroshlikka oid alohida darslik maktablar uchun chop yetilgan yemas. Kasb - hunar ta'limida xam bu masalalari bo'yicha xali ko'plab muammolar bor. Xaykaltaroshlik bilan boglik darslarni kasb - hunar ta'limi o'qituvchilari olib borishadi va ularning asosiy qismi nazariy hamda amaliy ishlarni darslarda tushuntirishlari bilangina cheklanib qoladi. O'quvchilar mustaqil bajarishi uchun yetarli adabiyotlar topa olmaydilar.

Ammo bu kishining qator xususistlariga xam bog'liqdir. Urganish uchun avvalo rasm chizuvchi kishida istak bo'lishi hamda unga qiziqishi, xoxishi bulishi lozim. Shuningdek, kerakli adabiyotlarni o'qib osondan qiyinga borish tamoyiliga amal qilgan holda batartiblik bilan rasmlar chizib mashq qilish zarur.

Demak, shunday yekan, doimiy ravishda qunt bilan adabiyotlarni urganib chizish sirlarini mashqlar orkali uzlashtirib borilsa sekin –asta savodli rasm chizishga va xaykallar bajarishga o'rganish mumkin.

Samarkand xaykaltaroshlik maktabida uz urniga ega bulgan xaykaltarosh Turkman Esanovning ijodiy yuli xam ancha ibratlidir. Shularni hisobga olib men diplom ishimni **“Haykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi.”** deb belgiladim.

Maqsadi: Haykaltaroshlik san'atining tarixiy tarakkiyotini yoritish, Xaykaltarosh Turkman Esonov ijodini urganish va kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir samarali usullarini ishlab xaykaltaroshlikni takomillashtirish.

Vazifalari: – Xaykaltaroshlikning rivojlanishi boskichlarini urganish. Talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobilyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish;

- borliq obyektlarini loy va turli boshqa materiallar vositasida yasash jarayonida haykaltaroshlikga tayanish; inson, qush va hayvonlar xaykaltaroshlik asoslari bilan tanishtirish;

- haykaltaroshlik o'qitish metodikasining nazariy va metodik asoslari mazmun va mohiyatini o'rganish. Haykaltarosh T.Esonovning ijodiy ishlari bilan ukuvchilarni tanishtirish.

Obyekti: Haykaltaroshlik san'ati va xaykaltarosh Turkman Esonov ijodida zamonoviylik va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish jarayoni.

Predmeti: Haykaltaroshlik san'atining rivojlanish davri, Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish dars va darsdan tashkari ishlar.

Bitiruv malakaviy ishda foydalanadigan uslublar: kuzatish, anketa, test, suhbat, olingan ilmiy natija va dalillarni matematik – statistik qayta ishlash va umumlashtirish, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy adabiyotlar va vaqtli matbuot maqolalarning tahlili, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, arxiv hujjatlari bilan tanishish, sinov darslarini o'quv kurslarini o'tkazish.

Ilmiy faraz: Agar;

- Haykaltaroshlik tarixini urganib Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi qonuniyatlariga amal qilinsa;

- Haykaltaroshlikning zamonoviy va uning tarixiy taraqqiyotini o'rganilsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olinsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodining o'ziga xosligi tomonlari anglansa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga amal kilingan xolda ish yuritilsa;

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodidan kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish uchun undan dars jarayonida foydalanilsa.

Amaliy ahamiyati:

- Haykaltaroshlikning kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasi tarixi yoritib berilgani.

- Haykaltaroshlikning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ochilganligi.

- Haykaltaroshlikning o'ziga xosligi belgilandi.

- Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikasiga doir darslarining turli yo'llari va usullari ko'rsatib o'tildi.

Nazariy axamiyati. Urganilgan natijalar xaykaltaroshlik san'ati tarixidagi urnini kengaytirib, zamonoviylik bilan uni belgilash, nazariy masalalarni tushunib yoritish bilan bog'lik. Xaykaltaroshlik san'atining ma'ruzalarida, amaliy mashg'ulotlarda mutaxassislik fanlarda amaliy foydalanish mumkin.

Yangiligi: Haykaltarosh Turkman Esonov ijodi va uni kasb-hunar kollej o'quvchilariga o'rgatish metodikada birinchi marotaba dars jarayoniga olib kirilmokda. Xaykaltaroshning ijodiy ishlari bilan xaykaltaroshlik tarakkiyoti uyg'unlashtirilganligi.

Tajriba – sinov ishlari. Samarkand davlat arxitektura kurilish me'morchilik instituti, tasviriy san'at yunalishi bulimi, Samarkand shaxar rassomchilik san'ati kolleji, san'at maktabi, 1-son pedagogika kollejining tasviriy san'at darslarida olib borildi.

Kullanilish soxasi. Barcha xaykaltaroshlik darslari, tugaraklarni olib boradigan maktab, kollej, oliy ta'lim tasviriy san'at yunalishlarining nazariy va amaliy darslarida foydalanishlari mumkin.

Tuzilishi: Kirish, ikki bob, besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxati va ilovadan iborat bo'lib 56 betni tashkil yetadi.

Ilmiy rahbar,

t.f.n., dots.:

M.Umarov

Talaba:

K.Bozorov

